

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS**

**TA‘LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Fakultet Filologiya

Kafedra O‘zbek tili va adabiyoti

O‘quv yili: 2017-2019

Urganch davlat universiteti magistratura bo‘limi Lingvistika (o‘zbek tili tushunilishi) magistranti

Nilufar Ro‘zmetovaning "O‘TIL da ifodalangan omonimlarning boshqa tarmoq

lug‘atlar bilan qiyosiy tahlili" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK 835.285.228*

Mavzusining dolzarbligi. Tadqiqotda hozirgi o‘zbek adabiy tiliida omonim

so‘zlar va ularning turli tarmoqlarda o‘rganildi. Turli omonimlarning asosiy tiplari bo‘yicha

shakli va ma’nosi o‘rganildi. Tadqiqotda omonimlarning qiyosiy tahlili "O‘zbek tili

da ifodalangan omonimlarning boshqa tarmoq lug‘atlar bilan qiyosiy tahlili

"O‘zbek tili omonimlarining boshqa tarmoq lug‘atlar bilan qiyosiy tahlili

magistrlik dissertatsiyasi" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

magistrlik dissertatsiyasi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

**Ro‘zmetova Nilufar Ro‘zmetovna**

**O‘TILda ifodalangan omonimlarning boshqa tarmoq lug‘atlar bilan qiyosiy  
tahlili**

**5A 120102 – Lingvistika(o‘zbek tili)**

**Magistr**

**Akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:**

**dots. Ro‘zimboyev S.S.**



**KADRLAR BO‘LIMI**

**Urganch – 2019**

## MUNDARIJA.

<b>KIRISH</b> .....	3-6
<b>I BOB. HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA OMONIM TUSHUNCHASI, PAYDO BO‘LISH OMILLARI VA TIPLARI</b> .....	7-42
1.1. To‘liq omonimlarning asosiy tiplari tahlili.....	7-13
1.1.1 Ot turkumi sathida shakllangan omoleksemalar.....	14-20
1.1.2. Fe‘l turkumi sathida shakllangan omoleksemalar.....	21-22
1.2. Omoforma tipidagi omonimlar tahlili .....	23-31
1.2.1. Ikki turkum doirasidagi omoleksemalarning qiyosiy tahlili.....	23-31
1.2.2 Uch va undan ortiq turkum doirasidagi omoleksemalarning qiyosiy tahlili.....	32-42
<b>II BOB. O‘ZBEK TILIDAGI OMOLEKSEMALARNING CHASTOTALI STATISTIK TAHLILI</b> .....	43-59
2.1. Uch leksema doirasida farqlanuvchi omonimlar tahlili.....	43-51
2.2. Uchdan ortiq leksema doirasida farqlanuvchi omonimlar tahlili.....	52-59
<b>III BOB. “O‘TIL”DA IFODALANGAN OMONIMLARNING “O‘ZBEK TILI OMONIMLARINING IZOHLI LUG‘ATI” BILAN QIYOSIY TAHLILI</b> .....	60-74
3.1. Lug‘atlar sathida to‘liq omonimlar tahlili.....	60-65
3.2. Lug‘atlar sathida omoformalar tahlili.....	66-74
<b>UMUMIY XULOSA</b> .....	75-77
<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	78-81

**KIRISH**

**Mavzuning dolzarbligi.** Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omillar va me'zonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omillardan biri - bu ta'lim tarbiya tizimidir. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillardanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar, ko'plab chop etilayotgani jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Xususan, hozirgi davrgacha o'zbek adabiy tilining fonetik, leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramay, hali o'zbek tilshunosligi oldida hal qilinmagan muammolar oz emasligini ta'kidlash kerak. Ana shunday muammolar qatoriga "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ifodalangan omonimlarning boshqa o'quv qo'llanmalari bilan qiyosiy tahlili va boshqa o'quv qo'llanmalaridan farqli jihatlari, ularning darslik va o'quv qo'llanmalarda ifodalanishi, an'anaviy va tizimli yondashuv masalalarini kiritish mumkin.

Hozirgi kunda "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ifodalangan omonimlarning turli tomondan tekshirish va boshqa o'quv qo'llanmalari bilan qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, hozirgi o'zbek tilida omonim tushunchasi, paydo bo'lish sabablari va

tiplari, to‘liq omonimlar va omoforma tipidagi omonimlarning qiyosiy tahlili va farqli jihatlarini chuqur o‘rganishni lozim deb topdik. Biz bu ishimizda, asosan, mustaqillik yillarida yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarni tahlil doirasiga tortib, ulardagi ilmiy-nazariy fikrlarni har jihatdan o‘rganib chiqdik. Bu esa ishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

**Mavzuning o‘rganilishi.** O‘zbek tilshunosligida ham chastotali lug‘atlar yaratish 70-yillardan buyon e‘tibor berilmoqda. Bunday chastotali lug‘atlarning ilk namunasi 1972-yilda I.A.Kissen tomonidan yaratilgan edi. Keyinchalik esa S.Rizayevning “O‘zbek bolalar adabiyoti tilining chastotali lug‘ati”ni yaratish bilan mamalakatimizda chastotali lug‘atlar doirasini kengaytirdi.<sup>1</sup> Shuningdek, R.Qo‘ng‘urov va S.Karimovlarning „Zulfiya poeziyasi tilining lug‘ati“, S.Muhamedov gazeta matnlari asosida „O‘zbek tilining alfavitli-chastotali lug‘ati“, S.Rizayev, N.Bo‘ronovlar „Abdulla Qahhor „Sinchalak“ povesti tilining chastotali lug‘ati“, S.Rizayevning Hamza Hakimzoda Niyoziyning „Devon“i leksikasiga bag‘ishlangan chastotali lug‘atlar yaratdilar.

O‘zbek adabiy tilining barcha hodisalarini, jumladan, omonim hodisasini ham statistik metod asosida o‘rganish, ikki, uch va undan ortiq leksema doirasida farqlanuvchi omonimlarning, shuningdek, ot va fe‘l turkumi sathida shakllangan omoleksemalarning chastotasini aniqlash katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Ilmiy tadqiqotning maqsadi O‘TILdagi omonimlarning qo‘llangan shakllarini tahlil qilish, turli ilmiy-nazariy fikrlarni leksika sathida ifodalanishini, shuningdek, gaplarda bir xil nazariy fikrlarning o‘quvchi savodxonligi uchun ahamiyatini alohida tahlil etib o‘rganishga qaratilgan. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal etishga harakat qilindi:

---

<sup>1</sup>Rizayev .S O‘zbek bolalar adabiyoti tilining chastotali lug‘ati, Toshkent, “Fan” 1980

1) Hozirgi o‘zbek tilida omonim tushunchasi, paydo bo‘lish omillari va tiplarini turli tomondan o‘rganish masalasi;

2) To‘liq omonimlarning asosiy tiplari doirasida ot turkumi va fe‘l turkumi sathida shakllangan omoleksemalarni chastotali tahlil qilish;

3) Omofoma tipidagi omonimlar tahlilida ikki, uch va undan ortiq turkum doirasidagi omoleksemalarning qiyosiy tahlilini o‘rganish;

3) “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da ifodalangan omonimlarning “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” bilan qiyosiy tahlili va farqli jihatlarini o‘rganish, shuningdek, uch va undan ortiq leksema doirasida farqlanuvchi omonimlarni qiyosiy jihatdan tahlil qilish;

**Tadqiqotning metodologik asoslari va tahlil usullari.** O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni va Respublika hukumatining til siyosatiga oid qator qarorlari, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “o‘zlikning anglash tarixni bilishdan boshlanadi”<sup>2</sup>, “ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi”<sup>3</sup> degan g‘oyat muhim va falsafiy fikrlari, shuningdek, davlatimiz rahbarining bebaho madaniy va ma’naviy merosni tiklash, davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi lozimligi haqidagi yo‘l-yo‘riqlari ushbu ishning metodologik asoslarini tashkil qiladi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Tadqiqot doirasida darslik va o‘quv qo‘llanmalarida omonim so‘zlar yuzasidan bildirilgan fikrlarda yetakchi o‘zbek tilshunoslarining hozirgi o‘zbek adabiy tili borasidagi muhim nazariy fikrlariga tayanildi. Ishning ilmiy yangiligi quyidagilarda o‘z ifodasini topdi:

- “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”, shuningdek, tilshunoslikning leksika bo‘limi bo‘yicha yaratilgan darslik va

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O‘zbekiston, 1997, 137-bet.

<sup>3</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. – T.: O‘zbekiston, 1996, 80-bet.

o‘quv qo‘llanmalar alohida obyekt sifatida maxsus tadqiq etildi;

- Hozirgi o‘zbek tilida har bir omoleksema va hodisa aniq fikrlar va misollar orqali yoritib berildi.
- Hozirgi o‘zbek tilida omonim hodisasi masalasining o‘rni, nutqdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.** Mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, o‘zbek tilshunosligida shu paytgacha omoleksemalar har tomonlama tadqiq etilgan bo‘lsa ham, ularda, ba’zan, bir xillik kuzatilmaydi. Bu ish ana shu fikrlarni umumlashtirish, nazariy jihatdan asoslash, keng va chuqur o‘rganish uchun muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

**Ishning tadqiqot obyekti va materiallari.** Tadqiqot obyekti sifatida hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksika sathi tanlandi. Mavzuni yoritishda o‘zbek tilshunosligida leksik qonuniyatlar masalasini to‘g‘ri va atroflicha yoritishga katta ahamiyat berildi.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Ish kompyuter yozuvida 81 sahifa bo‘lib, kirish, uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

# **I BOB. HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA OMONIM TUSHUNCHASI, PAYDO BO‘LISH OMILLARI VA TIPLARI.**

## **1.1 To‘liq omonimlarning asosiy tiplari**

Keyingi yillarda nazariy va amaliy tilshunoslik fani til hodisalarini turli tomondan mufassal, asosli tekshirish maqsadida bir-biriga yaqin fanlarning yutuqlaridan, shuningdek, tekshirishning matematik, statistik metodlaridan keng foydalanmoqda.

O‘zbek tilshunosligida ham bu sohada keyingi 30 yil davomida ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. A.Mahmudov, S.Rizayeva, A.Bobonorov, H.Orziqulov, S.Otamirzayeva, H.Yo‘ldosheva, M.Ayimbetov kabi olimlarning monografiyalari, nomzodlik va doktorlik ishlari yuzaga keldi.<sup>4</sup> O‘zbek adabiy tilining barcha hodisalarini, jumladan, omonim hodisasini ham statistik metod asosida o‘rganish va ularning ikki, uch va undan ortiq leksema doirasida farqlanuvchi omonimlarning, shuningdek, ot va fe‘l turkumi sathida shakllangan omoleksemalarning chastotasini aniqlash katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

So‘zlarning nutqda qo‘llanish miqdori, foiz nisbati haqida ma’lumot beruvchi lug‘at chastotali lug‘at deyiladi. Bunday lug‘at materiallari tildagi eng faol lug‘aviy qatlamni aniqlash imkonini beradi. Chastotali lug‘atlar bir qancha amaliy va ilmiy-tadqiqot muammolarini hal qilish uchun xizmat qiladi. Biz ham bitiruv malakaviy ishimiz davomida omonimlarning, jumladan, to‘liq omonimlarning asosiy tiplari doirasida ot va fe‘l turkumi sathida shakllangan omoleksemalarning, shuningdek, omoforma tipidagi omonimlarning chastotasini tuzishga va ularning boshqa o‘quv qo‘llanmalari bilan qiyosiy tahlilini o‘rganishga diqqat qaratdik.

O‘zbek tilshunosligida ham chastotali lug‘atlar yaratish 70-yillardan buyon e’tibor berilmoqda. Bunday chastotali lug‘atlarning ilk namunasi 1972- yilda

---

<sup>4</sup> A. Nurmonov, B. Yo‘ldoshev Tilshunoslik va tabiiy fanlar. - T.: Sharq, 2001

I.A.Kissen tomonidan yaratilgan edi. Kissenning „ Hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llanuvchi so‘zlar lug‘ati”ni yaratish uchun qirqta o‘zbek roman va qissaqalardan 101,044 ta so‘z shaklini tanlab shundan, 5,4 foizini atoqli otlar, qolgan 95,550 ta so‘z mustaqil va yordamchi so‘zlar bo‘lib, 94,6 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun I.A.Kissen o‘zbek tili materiallari zaminida lingvostatistik tadqiqotchilikning asoschisi deb tan olingan.

Keyinchalik esa S.Rizayevning “O‘zbek bolalar adabiyoti tilining chastotali lug‘ati”ni yaratish bilan mamalakatimizda chastotali lug‘atlar doirasini kengaytirdi.<sup>5</sup> Shuningdek, R.Qo‘ng‘urov va S.Karimovlarning „Zulfiya poeziyasi tilining lug‘ati”, S.Muhamedov gazeta matnlari asosida „O‘zbek tilining alfavitli-chastotali lug‘ati”, S.Rizayev, N.Bo‘ronovlar „Abdulla Qahhor „Sinchalak” povesti tilining chastotali lug‘ati”, S.Rizayevning Hamza Hakimzoda Niyoziyning „Devon”i leksikasiga bag‘ishlangan chastotali lug‘atlar yaratdilar.

Shu jumladan, leksika sathida omoleksemalarning qo‘llanish darajasi, ya’ni, chastotasini o‘rganib tahlil qilar ekanmiz, dastavval omonimlarning voqe bo‘lishiga olib kelgan sabablarga to‘xtalamiz. Bular quyidagilar:

I. Qadimgi turkiy tildagi turkum sinkretizmining yo‘qolishi oqibatida yuzaga kelgan. Turkiy tilning boshlang‘ich taraqqiyot bosqichida ayni bir ifoda jihatiga ega birlik fe‘l va ot, fe‘l va sifat ma’nolarini anglatish uchun ishlatilavergan. Ana shunday hodisaga *turkum sinkretizmi* deyiladi. Qadimgi turkiy tildayoq yo‘qolib ketgan bunday sinkretizmning qoldiqlari hozirgi o‘zbek tiliga turli holatda, ba’zilari jiddiy tovush o‘zgarishiga uchramasdan omoleksemalar sifatida yetib kelgan. Masalan, qadimgi turkiy tilning boshlang‘ich taraqqiyot bosqichida *yuq-birligi* harakat ma’nosini ham (qoldiq sifatida yopish), predmet ma’nosini ham (yopishib qolgan qoldiq) anglatish uchun ishlatilgan, keyinchalik bunday sinkretizm yo‘qolib, ikki leksemaga aylangan va shunday holatda hozirgi o‘zbek tiliga omoleksemalar sifatida yetib kelgan.

II. Leksemalarning ifoda jihatida voqe bo‘lgan tovush o‘zgarishlari oqibatida

---

<sup>5</sup>Rizayev .S O‘zbek bolalar adabiyoti tilining chastotali lugati, Toshkent, “Fan” 1980



teng kelib qolishi bilan yuzaga kelgan. Demak, bunday omonimiya tovush o'zgarishlari asosida izohlanadi. Masalan, *oq- I* sifat leksemasi asli *a:q* ifoda jihatiga, *oq- II* fe'l leksemasi esa *aq-* ifoda jihatiga ega bo'lgan, sifat leksema tarkibidagi *a:* tovushiga xos cho'ziqlik belgisi yo'qolishi oqibatida bu ikki leksema omoleksemalar holatiga o'tgan va shunday holatda *a* tovushi *â* tovushiga almashib hozirgi o'zbek tiliga yetib kelgan;

*oz- I* ravish leksemasi asli *a:z-* ifoda jihatiga, *oz-* (oriqla) fe'l leksemasi *ar-* ifoda jihatiga ega bo'lgan, *a:* tovushi *a* tovushiga va *a* tovushlari *â* tovushlariga, *r* tovushi *z* tovushiga almashib hozirgi o'zbek tiliga omoleksemalar tarzida yetib kelgan;

*but- I* (chot) ot leksemasi asli *bu:t-* ifoda jihatiga, *but- II* (bekam-u ko'st mavjud) kesimlik leksemasi asli *büt-* ifoda jihatiga ega bo'lgan, ot leksema tarkibidagi *u:* tovushining cho'ziqlik belgisi, kesimlik leksemasi tarkibidagi *ü* tovushining yumshoqlik belgisi yo'qolishi oqibatida omoleksemalar yuzaga kelgan.

Ifoda jihatining teng kelib qolishi natijasida voqe bo'lgan omonimiya:

1) o'zbekcha leksemalar orasida bo'ladi; ko'pchilikni shunday omonimiya tashkil etadi: *bel- I* (kishi tanasining a'zosi) - *bel- II* (ish quroli), *yoz- I* (fasl nomi) - *yoz- II* (*xatni yoz*) - *yoz- III* (*dasturxonni yoz*), *ellik- I* (beshinchi o'nlikning nomi) - *ellik- II* (*ikki ellik xat*) kabi;

2) o'zbekcha leksema bilan o'zlashma leksema orasida bo'ladi:  
a) o'zbekcha leksema bilan tojikcha leksema orasida: *yor- I* (ikkiga ajrat) - *yor- II* (mahbuba); *bog'- I* (*bir bog' piyoz*) - *bog'- II* (mevazor) kabi;  
b) o'zbekcha leksema bilan arabcha leksema orasida: *sir- I* (bo'yoqning nomi) - *sir- II* (maxfiy ish, gap, narsa); *sana- I* (donalab hisobla) - *sana- II* (muhim voqea ta'kidlanadigan yil, oy, kun) kabi;

3) o'zlashma leksemalar orasida bo'ladi:

a) tojikcha leksemalar orasida: *soz- I* (muzika asbobining nomi) - *soz- II* (yaxshi), *bod- I* (shamol) - *bod- II* (shish) kabi;

b) arabcha leksemalar orasida: *safar- I* (sayohat) - *safar- II* (gal, marta), *rasm- I* (suvrat) - *rasm- II* (urf-odat) kabi;

d) arabcha leksema bilan tojikcha leksema orasida: *karam- I* (mehr-shafqat) – *karam-II* (sabzavotning nomi) kabi.<sup>6</sup>

III. Omonimiya leksik ma'no taraqqiyoti natijasida voqe bo'ladi. Bu tur omonimiyani to'g'ri belgilash ancha qiyin, chunki ko'p ma'nolilik bilan omonimiyani farqlay bilish talab qilinadi. Ma'no taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan leksik ma'nolar boshqa-boshqa turkumga mansub bo'lsa, o'z-o'zidan omoleksemalar haqida gapirish lozim: *o'rta- I* (ot) - *o'rta- II* (sifat) misolida bo'lgani kabi. Agar bunday leksik ma'nolar bir turkumga mansub bo'lsa, ularning ideografik semalar tarkibiga suyanib hukm chiqarish kerak. Masalan, *kun- I* leksemasining leksik ma'nosiga ideografik semalar asosida beriladigan ta'rif bilan (yerga issiqlik va nur taratib turuvchi planeta) shu leksemadan o'sib chiqqan *kun- II* leksemasiga ideografik semalari asosida beriladigan ta'rifni (quyosh chiqqandan botgungacha bo'lgan vaqt) qiyoslasak, bu yerda ko'p ma'nolilik haqida emas, balki omoleksemalik haqida gapirish lozimligi ayon bo'ladi. Leksik ma'no taraqqiyoti natijasida voqe bo'lgan omoleksemalarga leksik ma'noning taraqqiyoti bayon qilingan o'rinda misollar berilgan; bu yerda bir necha misol keltirish bilan kifoyalanamiz: *yosh- I* (umr) - *yosh- II* (hali ko'p yashamagan); *boq- I* (qara) – *boq- II* (tarbiyala, o'stir); *band- I* (egallangan) – *band- II* (tutqich, dum: *band bergan qovun*) kabi.<sup>7</sup>

Shuni ta'kidlash lozimki, ot leksemaning sifatlashuvi, sifat leksemaning otlashuvi kabi nutqiy hodisa natijasida emas, balki ot leksema asosida sifat leksemaning, sifat leksema asosida ot leksemaning yuzaga kelishi natijasidagina omoleksemalar paydo bo'ladi. Masalan, *Yaxshiga yondash, yomondan qoch* jumlasida *yaxshi-*, *yomon-* sifat leksemalari otlashgan, lekin ot leksemaga ko'chgan emas. Ot leksema bajaradigan sintaktik vazifada sifat leksema kelgani

---

<sup>6</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent.: Universitet, 2006, 41-bet

<sup>7</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent.: Universitet, 2006, 42-bet

sababli sintaktik vazifaga bog‘liq holda nutqda predmetlik semasi qo‘shiladi, otlashish yuz beradi, lekin predmetlik semasi doimiy sema bo‘lmaydi.

Bir turkum leksemasi asosida boshqa bir turkum leksemasi yuzaga kelishi uchun turkumlik semasi (predmet, belgi, harakat kabi) bu leksemalarning semalar tarkibiga lison bosqichida birkirilgan bo‘lishi kerak. Aks holda bir turkum leksemasining boshqa turkum leksemasi o‘rnida ishlatilishi voqe bo‘ladi xolos. Bir turkum leksemasi asosida boshqa bir turkum leksemasi yuzaga kelganda, turkumlik semasidan tashqari, leksemalarning ideografik semalar tarkibida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Masalan, *issiq- I* sifat leksemasi asosida *issiq- II* ot leksemasi yuzaga kelgan.

Bunda: 1) belgi turkumlik semasi predmet turkumlik semasiga almashgan;

2) sifat leksema ideografik semalari tarkibidagi “me’yor (o‘lchov)”, “ortiq” semalari tashlangan;

3) “harorat” semasi yana ham mavhumlik tomon taraqqiy etgan, ana shu mavhum sema ot leksemaning semantik mundarijasini tashkil etib qolgan. Demak, sifat leksema ideografik semalari tarkibidagi “harorat” semasi kuchayib, qolgan ideografik semalarning so‘nishi yo‘li bilan ot leksema yuzaga kelgan.

IV. Omoleksemalar leksema yasalishi natijasida ham yuzaga kelgan. Buning asosiy ko‘rinishlari:

1. Tub leksema bilan yasama leksema orasida voqe bo‘lgan: *bek- I* (hukmdor) - *bek-II* (be- mustahkam qil + *k* sifat yasovchisi: yopiq); *kuya- I* (yungli matoga tushadigan zararkunanda hasharot) - *kuya- II* (*kuy- kuyib ko‘mir bo‘l* + *a* ot yasovchisi: kuyish natijasida hosil bo‘ladigan qora zarralar) kabi.

2. Yasama leksemalar orasida voqe bo‘ladi. Buning asosiy ko‘rinishlari:

1) Bir leksemadan yasalishlarda voqe bo‘ladi:

a) Bir affiksning o‘zi yordamida yasaladi: *boshliq- I* (*bosh-* boshlang‘ich + *liq*) – *boshliq- II* (*bosh-* asosiy + *liq*); *betla- I* (*bet-* yuz + *la*) – *betla- II* (*bet-* sahifa + *la*).

Bu leksemalarning har biri ayni leksemaning boshqa-boshqa leksik ma’nosidan yasalgan.

Yuqoridagi misollarda har bir leksema o'zicha mustaqil yasalgan, natijada omonimiya hosil bo'lgan. Yasama leksemalar orasidagi omonimiya boshqacha taraqqiyot natijasida ham yuzaga keladi. Masalan, *ayri- I* (*ayir + i* sifat yasovchisi) - *ayri- II* (ot); *kecha- I* (*kech + a* ot yasovchisi) – *kecha- II* (ravish); *tepki- I* (*tep + ki*) – *tepki- II* (ot) kabilarda ikkinchi leksema birinchi (asli yasama) leksemaning ma'no taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan;

b) har xil affiks yordamida yasaladi: *tiqin- I* (*tiq + in* narsa-qurol oti yasovchisi) – *tiqin- II* (*tiq + in* sifat yasovchisi); *solliq- I* (*sol+ iq* ot yasovchisi) – *solliq- II* (*sol+ iq* sifat yasovchisi) kabi.

2) Har xil leksemalardan yasalishlarda voqe bo'ladi:

a) Bir affiksning o'zi bilan yasaladi: *sochiq- I* (*soch- I* boshdagi tuklar+ *iq* narsa oti yasovchisi) – *sochiq- II* (*soch- II* har tomonga otib tashla+ *iq* narsa oti yasovchisi), *chog'la- I* (*chog'- chama+ la*) – *chog'la- II* (*chog'- yaxshi holat+ la*) kabi.

b) Har xil affiks bilan yasaladi: *kechik- I* (*kech-* birin-ketin o't + *ik* ot yasovchisi) - *kechik- II* (*kech-* ravishi + *ik* fe'l yasovchisi), *ochiq- I* (*och* fe'li + *iq* sifat yasovchisi) – *ochiq- II* (*och-* sifati + *iq* fe'l yasovchisi) kabi.

V. Alohida hodisa sifatida *ideal I* – *ideal II* kabi omoleksemalarni ko'rsatish lozim. Bular ruscha sifatni o'ziga xos usul bilan olish natijasida voqe bo'ldi: ruscha *idealniy* kabi sifatning sifat yasovchisi tugallanmasi bilan birga tashlandi va ayni vaqtda bu qo'shimchalar oldidagi yumshatish belgisi ham tashlandi: *idealniy* → *ideal* → *ideal* kabi. Natijada bunday yo'l bilan hosil qilingan sifat unga parallel ravishda o'zlashgan ot (*ideal*) bilan omoleksemaga aylandi: *general* (ot) – *general* (sifat: *general plan*), *kapital* (ot) – *kapital* (sifat: *kapital remont*) kabi.

Til birliklarining ma'nolariga ko'ra har xil bo'lib, talaffuzida hamda yozilishida teng kelib qolishiga omonimiya deyiladi. Omonimiya so'zi yunoncha bo'lib, *homos* – “birdek”, “bir xil”, *onyma* – “ism” demakdir. Omoleksemalarni belgilashda talaffuz jihatidan bo'ladigan bir xillik ham, harfiy (grafik) ifoda

jihatidan bo‘ladigan bir xillik ham hisobga olinadi.

Masalan, *buyurmoq-I (nasib qilmoq)* leksemasi, *buyurmoq-II (amr qilmoq)* leksemasi o‘zaro bir xil talaffuz qilinadi va yoziladi.

Omoleksemalar turli grammatik shakllarga kirishi nuqtayi nazaridan yondashib *omonim (to‘liq) omoleksemalar* va *omoforma omoleksemalar* deb ajratiladi.

1. Omonim omoleksemalar barcha muqobil grammatik shakllarida teng keladi. Masalan, *zang-I* (metall chirishi), *zang-II* (qo‘ng‘iroq), *zang-III* (tokning yo‘g‘on novdasi), *bo‘shamoq-I* (ozod bo‘lmoq), *bo‘shamoq-II* (yumshamoq) kabi.

Birinchi juft ham, ikkinchi juft ham o‘zaro barcha muqobil shakllarida teng keladi: *zangni I – zangni II*, *zangini I – zangini II*, *bo‘shadi I – bo‘shadi II*, *bo‘shabdi I – bo‘shabdi II* kabi.

Omonim omoleksemalar asosan bir turkum leksemalari bo‘ladi. Bunday omonimiya ko‘pincha ot, fe‘l turkumi leksemalarida uchraydi: *asar-I* (ijod mahsuli) - *asar-II* (iz, ta’sir), *yorishmoq-I* (yorug‘ bo‘lmoq) – *yorishmoq-II* (o‘tin yormoq).

Omonim omoleksemalar sifat turkumi leksemalarida ham uchraydi: *och-I* (ochqagan) - *och-II* (me’yorga yetmagan - rang haqida: *och ko‘k*) kabi.

Har xil turkum leksemalari o‘zaro omonim omoleksema bo‘lishi uchun ular grammatik shakllanishga ega bo‘lmasligi kerak. Masalan, *albatta-I* (*Albatta boraman – ravish*) – *albatta-II* (*Boraman, albatta – modal birlik*). Bunday munosabat *balki I* modal birligi bilan *balki II* bog‘lovchisi orasida ham voqe bo‘lgan.

### 1.1.1. Ot turkumi sathida shakllangan omoleksemalar

Ushbu bobda ot soʻz turkumiga oid boʻlgan toʻliq omonimlarni “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” yordamida aniqlab, “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati” bilan qiyoslab, ularni alifbo tartibida tahlil qilishga harakat qildik.

“A” - alam- II (dard, azob, iztirob - bayroq), alif- II (arab alfavitidagi birinchi harfning nomi - boʻyoq), asar- II (ijod mahsuli - iz, taʼsir), asorat- II (asirlik, tutqunlik - iz, qolqiq), afgʻon- II (millat nomi - nola) , ananas- II (meva turi – qovun navi) , ark- II (qasr – arka), arz- II (shikoyat – yer kurrasi), asr- II (davr – kun qismi), atlas- II (mato turi – xarita);

“A” harfiga doir toʻliq omonimlar soni 10 ta boʻlib, shulardan “*ananas*”, “*ark*”, “*arz*” va “*atlas*” soʻzlari “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”da keltirilmagan.

“B” - bargak- III (tol novdasi - quritilgan oʻrik - ayollar bezagi), baqa- II (qurbaqa - tegirmon toshinig taxtasi), bahr- IV (dengiz - adabiyotshunoslik termini - ulush, naf - havas, qiziqish) , bel- II (gavda aʼzosi - belkurak) , birlik- III (son – ittifoq - oʻlchov), bod- II (shamol - kasallik nomi) , boks- III (sport turi – ajratilgan xona – soch turmagi), boshogʻ- II (bugʻdoy boshi – kamon uchi), boshliq- II (rahbar – yopinchiq), bulduruq- II (qushcha - qor zarralari), baliq- II (suv jonivori - shahar), burch- II (vazifa - burchak), banda- III (inson – ansambl – bezorilar toʻdasi), burgut- II (qush – yulduzlar turkumi), boʻka- II (hayvon - hasharot), boʻy- II (uzunlik – hid), boʻyin- III (organ – suv yoʻli – masofa);

“B” harfiga doir toʻliq omonimlar soni 17 tani tashkil qilib, shulardan “*boks*”, “*boshogʻ*”, “*baliq*”, “*banda*”, “*burgut*”, “*boʻyin*” omoleksemalari “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”da keltirilmagan.

“D” - daha- II (hudud - muddat) , dasta- II ( tutqich – bogʻlam ), davlat- II (mamlakat – boylik), devon- III (toʻplam - divan – mahkama (eski)), doira- II (matematik termin – cholgʻu asbobi), dom- III ( tuzoq – darak, xabar – uy ), dosh- II (qozon – chidam), dovul- II (boʻron - cholgʻu asbobi), dunyo- II ( olam – boylik), doʻl- III (muz - tegirmondagi taxta idish - nogʻora) ;

“D” harfiga doir omonimlar soni 10 ta bo‘lib, shulardan “*dosh*” so‘zi “O‘zbek tili omonimlarning izohli lug‘ati” berilmagan.

“F” - fe‘l- II (xulq-atvor - atama), fokus- II (fizika termini - o‘yin turi)

“G”- gap- II (ziyofat - nutq birligi), gazak- II (yara - ovqat) , gulband- II (o‘simlik poyasi - pichoq naqshi), gul- II (o‘simlik - kasallik) ;

“I” - istak- II (xohish - tol novdasi);

“J”- jir- III (moy – qo‘shiq – janjal) , jish- II (go‘sht bo‘lagi – qush bolasi) , jo‘ra- I (ulfat - mato bo‘lagi) ;

“F”, “g”, “j” va “i” harflariga doir omonimlar soni 10 ta bo‘lib, shulardan “*gul*”, “*jir*”, “*jish*” omoleksemalari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da keltirilmagan.

“K” - kamar- II (belbog‘ - chuqurlik), kadr- II ( yakka surat - xodim), kalla- II (bosh - o‘simlik), karam- II (himmat - poliz ekini), karta- II (xarita - ekin maydoni), kasr- II (matematika termini - kasofat), kran- II (jo‘mrak - yuk ko‘taruvchi mehanizm), kurra- II (yer shari - xo‘tik), kuya- II (kapalak - qurum), ko‘cha- II (yo‘l - go‘ja);

“K” harfiga doir omoleksemalar soni 10 ta bo‘lib, shulardan “*kalla*”, “*karta*”, “*kran*”, “*kurra*” va “*ko‘cha*” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

“L” - luqma- II (tishlam, yutum - gap), lama- II ( hayvon - buddaviy ruhoni), lampa- II (chiroq – ganch suvoq qilingan ship), lava- II (ko‘chki – yoppasiga qaziladigan joy), langar- II (kemani bir joyda ushlab turuvchi temir changak – dorboz tayog‘i), liga- II (musiqat atamasi - ittifoq) , lira- II (pul birligi – cholg‘u asbobi), lom- II (arab harfi – temir asbob), lot- II ( sanam, ma‘buda – suvning chuqurligini o‘lchovchi asbob), lotok- II ( ko‘chma do‘kon – suv yo‘li)

“L” harfiga doir omoleksemalar soni 10 ta bo‘lib, shulardan “*lama*”, “*lampa*”, “*lava*”, “*langar*”, “*liga*”, “*lira*”, “*lom*”, “*lotok*” va “*lot*” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

“M”- ma‘mur- II (boshliq – obod yer), mandarin- II (meva turi – davlat

arbobi), mansab- II (amal – daryoning quyilish joyi) , mardum- II (kishi – ko‘z gavhari), marka- II (pochta qog‘ozi – pul birligi), maska- II (niqob – saryog‘), masxara- II (ermak, kulgi - mazxaraboz), may- II (oy nomi - moda), me‘da- II (oshqozon – kasallik) , mehr- II (quyosh – oqibat), metrika- II (guvohnoma – she‘r tizimi), mil- V (soat detali – miltiq stvoli – o‘lchov – keskir temir asbob surmacho‘p), milk- II (tish to‘qimasi – mato qirg‘og‘i), mumiyo- III (mumsimion organik modda– mineral bo‘yoq – jasad), musallas- II (qizil vino – she‘r turi), mushak- III (muskul – portlovchi modda – sabzi ) , mushtariy- II (planeta – xaridor), mo‘rcha- II (hammom – chumoli)

“M” harfiga doir omoleksemalar soni 18 ta bo‘lib, shulardan “*ma‘mur*”, “*mandarin*”, “*mansab*”, “*mardum*”, “*marka*”, “*maska*”, “*masxara*”, “*may*”, “*me‘da*”, “*mushtariy*”, “*mo‘rcha*”, “*mehr*” va “*metrika*” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

“N” - nabot- II (novvot – o‘simlik), nasr- II (epik asar – maqom bo‘limi), navo-II (kuy – bezak turi), naycha- II (kichik nay – taqinchoq), nayza- II (o‘tkir qurol – naqsh turi), nor- IV (yirik xol – tuya – anor – olov), nota- II (musiqiy atama – ishonch qog‘ozi), nafas- II (havo, dam – qisqa vaqt, lahza) ;

“N” harfiga doir omoleksemalar soni 8 ta bo‘lib, shulardan “*nabot*”, “*nasr*”, “*navo*”, “*naycha*” va “*nayza*” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

“O” - obaki- II (uzum navi – shirinlik), obida- II (xudojo‘y ayol – qabrtoshi), olmos- II (qimmatbaho tosh – zaharli o‘t), olqor- II (yovvoyi o‘t – yovvoyi qo‘y), olchin- III (urug‘ nomi – uzunlik o‘lchovi – yog‘och to‘qmoq) , ovsar- II (esi pastroq – tuya boshiga kiydiradigan boshvoq) , oyoq- II (tana qismi – idish), organ-II ( a‘zo – cholg‘u asbobi ) , orden- II (nishon, mukofot – diniy tashkilot) , oqsil- II ( yuqumli kasallik – organik modda ) , og‘iz- II (a‘zo – sut), ong- II (idrok – yovvoyi parranda);

“O” harfiga doir omoleksemalar soni 12 ta bo‘lib, shulardan “*obaki*”, “*obida*”, “*olqor*”, “*olchin*”, “*ovsar*”, “*oyoq*”, “*organ*”, “*orden*”, “*oqsil*” va



“ong” soʻzlari “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”ga kiritilmagan.

“P” - palak- II (qovunning tanasi – kashtachilik buyumi), panja- II (qoʻl – bilaguzuk), parabola- II (yassi egri chiziq – adabiyotshunoslik termini), parda- II (deraza matosi – musiqiy atama), parvona- II (kapalak – shoh farmoni), pat- II (parranda pati – shahmatda durang), patir- II (yupqa non – tovush), pand- II (nasihat - zarar), peshband- II (mato, fartuk – qoʻlni bogʻlash usuli), peshak- II (oʻsimlik – handalak turi), pilla- II (ipak qurtining mahsuli – tish kasalligi), pol- II (ekin maydoni boʻlagi – xonaning sathi), polis- II (shahar – sugʻurta guvohnomasi), pora- II (parcha – noqonuniy berilgan yoki olingan pul), posira- II (tomorqa – yigʻilgan narsa), paqir- II (chelak – ikki tiyinlik chaqa), pogʻona- II (zinaning bir poyasi – musiqiy atama), prokat- II (ijara – metal mahsulot), pul- II (qiymat oʻlchovi – koʻprik);

“P” harfiga doir omoleksemalar soni 19 ta boʻlib, shulardan “*palak*”, “*panja*”, “*parabola*”, “*parda*”, “*parvona*”, “*pat*”, “*patir*”, “*pilla*”, “*peshband*”, “*peshak*”, “*pol*”, “*polis*”, “*posira*”, “*pogona*” va “*prokat*” soʻzlari “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”ga kiritilmagan.

“Q” - qalami- II (gulli ipak mato – bezak, naqsh), qandil-II (lustra – olma navi), qariqiz- II (begona oʻt – qovun navi), qavs- II (tinish belgisi – burjlardan biri), qayin- III (qarindosh – daraxt – nordon anor), qizilbosh- II (yovvoyi oʻrdak – askar), qizilcha- II (lablagi – kasallik), qiyiq- II (mato boʻlagi – belbogʻ, qiyiqcha), qirov- III (mayda muz – mollardagi kasallik – charxlangan pichoq betidagi zarra), qiron- II (qirgʻin – mamlakat, olam), qonun- II (rasmiy qoida – cholgʻu asbobi), qorakuya- II (qurum – oʻsimliklardagi kasallik), qoraqand- II (qovun navi – togʻ oʻsimligi mevasi), qoraqosh- II (oʻsimlik turi – qovun navi), qoqi- II (quritilgan meva – oʻsimlik), qoqshol- II (quruq suyak – yuqumli kasallik), qoshiq- II (oshxona anjomi – musiqa asbobi), qullob- II (qisqich, tuzoq – belbogʻ, xalta), quroq- III (mato parchasi – oʻsimlik – varrak), qushxona- II (qush boqiladigan joy – kushxona (chorva soʻyiladigan joy)), qoʻltiq- II (tana qismi – koʻrfaz), qoʻnoq-II (bir yillik oʻsimlik – mehmon), qoʻriqchi- II (himoyachi –

qo‘riq yer ochuvchi), qo‘ton- II (poda – yirtqich qush ), qo‘tos- II ( hayvon – bezak buyum), qumri- II (qush turi – sariq gulli o‘t)

“Q” harfiga doir omoleksemalar soni 26 ta bo‘lib, shulardan “qalami”, “qandil”, “qariqiz”, “qayin”, “qizilbosh”, “qizilcha”, “qiyiq”, “qonun” va “qoraqand”, “qoraqosh”, “qoqi”, “qoqshol”, “qoshiq”, “qullob”, “quroq”, “qushxona” “qo‘noq”, “qo‘riqchi” va “qumri” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

“R” - rang- III (bo‘yoq – unvon – yovvoyi o‘simlik) , rasm-II (surat – urfodat), registr- III (qaydnoma – musiqiy atama – kodlarni xotirada saqlovchi qurilma), relyef- II (har xil notekisliklar majmui – haykaltaroshlikning bir turi), rohat- II (orom, gasht – kuy nomi), rondo-II (musiqiy atama – she‘r shakli) , rukn- II (ustun – Islomda farz sanalgan beshta vazifaning har biri), rux- III (shaxmat donasi – yuz, ruxsor – metall turi) ;

“R” harfiga doir omoleksemalar soni 8 ta bo‘lib, shulardan “registr”, “relyef”, “rohat”, “rukn” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

“S” - sad- II (devor – yuz, chehra), sak- II (it – urug‘), salat- II (taom – poliz ekini), salib- II (xoch, krest – o‘simlik), salla- II (bosh kiyim – pishiriq, o‘rama), sandal- III (isitkich – shippak – daraxt), sano- II (madh, hamd – ko‘p yillik o‘t), saqmon – II (palaxmon – qo‘ylar to‘dasi), sarf- II ( xarajat – morfologiya) , sariq- III (rang – qabila nomi – kasallik), saroy- II (o‘zbek qabilalari uyushmasi – qasr), sarparda- II (yopinchiq – musiqiy atama ), savag‘ich- II (o‘simlik – qamchi) , savdo- II (tijorat – ko‘rgulik ), sazo- II (tanbeh – ovoz), sachratqi- II (begona o‘t – toshma, issiqlik), sinf- II (ijtimoiy qatlam – ta‘lim bosqichi), sir- III (bo‘yoq – asror – pishloq), sirka- II (bit tuxumi - o‘tkir hidli suyuqlik), soqa- III (ariq boshi – shar – harbiy atama), stavka- II (to‘lovlar me‘yori – harbiy qarorgoh ), standart- II (namuna – bir qolipdagi, shablon), sumalak- II (taom – muz bo‘lagi), surg-i- II (dori – sochiq), suzgich- III (filtr – baliq a‘zosi – suv betida suzuvchi yengil detal), so‘na- (hasharot – erkak o‘rdak), so‘zan- II (igna – o‘simlik);

“S” harfiga doir omoleksemalar soni 27 ta bo‘lib, shulardan “*sad*”, “*sak*”, “*salat*”, “*salib*”, “*sano*”, “*saqmon*”, “*sarf*”, “*saroy*”, “*sarparda*”, “*savag‘ich*”, “*sachratqi*”, “*sinf*”, “*soqa*”, “*stavka*”, “*standart*” va “*surgi*” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

“T” - taka- II (erkak echki- pul birligi), taksa- II (belgilangan xizmat haqi – ov iti), takya- II (yostiq – choyxona), taloq- II (nikohni buzish – qorajigar), tana- II (badan – urg‘ochi buzoq), tanketka- II (jangovar mashina – oyoq kiyimi), tariq- II (g‘alla o‘simligi – usul, yo‘sin), taxta- II (yog‘och bo‘lagi – keng divan), tegana- II (yo‘g‘on igna – gardishsimon joy), tender- II (maxsus vagon – tanlov), tepki- II (oyoq zarbi – yuqumli kasallik), teri- II (po‘st, charm – taom), termit- II (hasharot – kukunsimon aralashma), tir- II (kamon o‘qi – otish mashqlari o‘tkaziladigan joy), titan- II (kimyoviy element – suv qidiruvchi katta idish), titul- II (kitobning ilk beti – kodeksdagi alohida bo‘lim), tovon- II (oyoq qismi – jarima), turoq- II (maskan – adabiyot atamasi), turp- II (sabzavot – mevaning qoldig‘i), tuta- II (paxta ipi – o‘simlik), tomoq- II (inson a‘zo - ovqat);

“T” harfiga doir omoleksemalar soni 21 ta bo‘lib, shulardan “*taka*”, “*taksa*”, “*takya*”, “*tanketka*”, “*tariq*”, “*taxta*”, “*tegana*”, “*tender*”, “*teпки*”, “*titan*”, “*titul*”, “*turoq*” va “*tuta*” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

“U” - uran- II (planeta – kimyoviy element), uzal- II (tugun – kemalarda tezlik o‘lchovi), uchoq- II (uchadigan apparat – kina, suq);

“V” - vaj- II (sababa – narsa), vaqf- II (diniy muassasa mulki – pauza ), vzvod- II (harbiy bo‘linma – qurol detali);

“V” va “U” harflariga doir to‘liq omonimlar soni 6 tani tashkil qilib, shulardan “*uran*”, “*uchoq*”, “*vaj*”, “*vaqf*” va “*vzvod*” omoleksemalari lug‘atga kiritilmagan.

“Y”- yag‘mo- II (talon-taroj – qabila nomi), yilqichi- II (cho‘pon – tungi qush), yem- II (ozuqa - ot kasalligi) , yig‘im- II (soliq- bank atamasi), yom- II (qo‘nalg‘a, bekat – katta xum) , yoqut- II (qimmatbaho tosh – urug‘ nomi), yorg‘i-

II (arra – jarima), yugan- II (ot abzali – o‘simlik), yupiter- II (sayyora- kino yoritgichi);

“Y” harfiga doir omoleksemalar soni 9 ta bo‘lib, shulardan “yag‘mo”, “yig‘im”, “yom”, “yorg‘i”, “yugan” va “yupiter” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

“Z” - zang- III (metall chirishi - qo‘ng‘iroq - tokning yo‘g‘on novdasi), zangila- II (milk kasalligi – raqs turi);

“Sh” - shamsiya- II (quyosh yili – soyabon, zont), shayton- II (iblis – binokorlik asbobi), sheva- II (mahalliy til – noz-karashma), shilliq- II (yelimsimon modda – qurt), shira- II (sharbat - hasharot);

“Z” va “sh” harflariga doir omoleksemalar soni 7 ta bo‘lib, shulardan “zangila”, “shamsiya”, “sheva”, “shilliq” va “shira” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

“Ch” - chakak- II (pastki jag‘ – oyoq kiyimi qismi), chakka-III (yuz qismi – shipdan tomadigan suv - mahsulot), chang-III (to‘zon – qush oyog‘ining qismi – musiqa asbobi), changal-II ( qushning barmoqlari - butazor), changchi- II (sozanda – o‘simlik qismi), charxchi- II (usta – sayroqi qush ), chechak- II (o‘simlik – kasallik), chipta- II (po‘stloq tolasi – bilet ), chora- II (iloh – tog‘ora), chov- II (inson a‘zosi – eshkak ), chog‘lik- II (shodlik - torlik), churrak- II (yovvoyi qush - non), cho‘lpi- II (ayollar bezagi - savatcha), cho‘pchak- II (ertak – o‘tin), cho‘g‘- II (yongan o‘t – salmoq, chama);

“Ch” harfiga doir omoleksemalar soni 15 ta bo‘lib, shulardan “chakak”, “changchi”, “charxchi”, “chipta”, “chora”, “chov”, “chog‘lik”, “churrak”, “cho‘lpi” va “chog‘” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

Tahlilimiz davomida ot so‘z turkumidagi to‘liq omoleksemalarning miqdori 238 tani tashkil qilib, ularning deyarli 50% qismi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” ga kiritilmagan.

### 1.1.2. Fe'l turkumi sathida shakllangan omoleksemalar

Endi to'liq omonimlarning fe'l turkumi sathida shakllangan omoleksemalarning tahliliga diqqat qaratamiz. Ular quyidagilar:

Bela- II (beshikka yotqizmoq - chaplamoq), betla- II (botinmoq - raqamlamoq), bo'shamoq- II (ozod bo'lmoq - yumshamoq), bo'lmoq- II (yuz bermoq - parchalamoq), buyurmoq- II (nasib qilmoq – amr qilmoq), damla- II (osh damlamoq – choy damlamoq), dastalamoq- II (tutqich qilmoq - taxlamoq), javramoq- II (vaysamoq – sovuqqa qotmoq), kurashmoq- II (kurashga tushmoq – qorni tozalashga yordamlashmoq), ko'klamoq- II (ko'karmoq - tikmoq), ozmoq- II (oriqlamoq - adashmoq), pishimoq- II (me'yoriga yetmoq - ivimoq), pishmoq- II (rivojlanib yrtilmoq – ho'l qilmoq), qadoqlamoq- II (o'lchab pachkalamoq – singan idishlarni metal mixlar bilan ulamoq), qadoqlanmoq- III (choy qadoqlandi – idish qadoqlandi – qo'l qadoqlandi), qamashmoq- II (ko'zi qamashdi – ozodlikdan mahrum qilmoq), qoplamoq- II (ustini bosirmoq – qopga solmoq), qoqilmoq- II (mixning qoqilishi – urilib ketmoq), qurish- II (qurimoq – qurmoq ), sirkalamoq- II (sirka sepmoq – tuxum qo'ymoq), sirmoq- II ( ustini qoplamoq – och qo'ymoq ), soplamoq- II (dastalamoq – tamom qilmoq), surishtirmoq- II (u yon-bu yon surmoq - aniqlashtirmoq), suzmoq- III (filtrlamoq – suvda harakatlanish – shoxi bilan harakat), so'kilmoq- II (chokidan ajralmoq – haqoratlanmoq ), so'kmoq- II (chokidan ajratmoq – so'kmoq), so'rmoq- II (ichiga tortmoq – so'ramoq), tepchimoq- II (mayda tikmoq – sizib chiqmoq), tezlamoq- II ( tezligi oshmoq – ta'mirlamoq), tikilmoq- II ( tikilmoq – qaramoq ), toblamoq- II ( qizdirmoq – eshmoq), tovlamoq- III ( qizdirmoq – eshmoq, o'ramoq - aldamoq), tovsillamoq- II (kamaymoq – ikkilanmoq), toylamoq- II (bolalamoq - taxlamoq), tutashmoq- II (alangalanmoq – ulanmoq ), tutinmoq- II (ishga kirishmoq – do'st bo'lmoq), tuymoq- II (yanchmoq – his qilmoq), tuzalmoq- II (sog'aymoq – bezatmoq), to'qishmoq – II (to'qimoq – to'qnashmoq), ulashmoq- II (tarqatmoq – bog'lamoq), ulinmoq- II (uvlamoq – yallig'lanmoq), uydirmoq – II (yig'dirmoq – to'qib chiqarmoq), uyushmoq- II (birlashmoq - uvishmoq), uyalamoq- II (uya

qurmoq – yotgan joyidan turolmay qolmoq (hayvonlar haqida)), varaqlamoq- II (varaqlarni birma-bir ochmoq – varaq-varaq ovoz chiqarmoq), yarashmoq – II (janjalni to'xtatmoq – ko'rkamlik baxsh etmoq), yaratmoq- II (vujudga keltirmoq – yaramoq), yomonlamoq- II (qoralamoq - kasallanmoq), yopilmoq- II (berkitmoq – pishirilmoq), yopishmoq- III (berkitishmoq – pishirishmoq - ushlamoq), yopmoq- II (berkitmoq - pishirmoq), yorishmoq- II (yorug' bo'lmoq – o'tin yormoq), yozilmoq- II (yayramoq – qog'ozga tushirmoq), yutishmoq- II (g'olib bo'lishdi – tomoqdan o'tkazdilar), yutqizmoq- II (yemoq – mag'lub bo'lmoq), o'lmoq- II (qazo qilmoq – bo'lmoq), g'o'rillamoq- II (yelib kirmoq – do'rillamoq), shonalamoq- II (shona chiqarmoq - taramoq), shoxlamoq- II (butoq chiqarmoq - suzmoq), sho'ralamoq- II (po'st tashlamoq – tokning g'unchalashi), chakmoq- II (chekmoq – nonnga chakich urmoq), chalmoq- III (kuy ijro qilmoq – oyog'idan ilmoq – o'ramoq, bog'lamoq), chaplamoq- II (yopishtirmoq – chap berib o'tmoq), chaplashmoq- II (yopishtirmoq – qarshi bo'lib qolmoq), chekmoq- III (tortmoq – boshdan kechirmoq – iste'mol qilmoq), chopishmoq- II (yugurishmoq - chopqilamoq), chopmoq- II (yugurmoq - kesmoq), chog'lamoq- II (hozirlamoq – xursand qilmoq), chuvlamoq- II (otni yurishga undash – qiy-chuv qilmoq);

Tahlilimiz natijasida fe'l turkumiga doir to'liq omonimlarning soni 69 tani tashkil qilib, shulardan *“javramoq”, “kurashmoq”, “pishmoq”, “qadoqlanmoq”, “qamashmoq”, “qoqilmoq”, “qurish”, “soplamoq”, “surishtirmoq”, “tepchimoq”, “tikilmoq”, “toblamoq”, “tovsillamoq”, “toylamoq”, “tutimoq”, “tuzalmoq”, “to'qishmoq”, “ulashmoq”, “ulinmoq”, “uydirmoq”, “uyalamoq”, “varaqlamoq”, “yaratmoq”, “yomonlamoq”, “yopilmoq”, “yopishmoq”, “yorishmoq”, “yozilmoq”, “yutqizmoq”, “o'lmoq”, “g'o'rillamoq”, “shonalamoq”, “shoxlamoq”, “sho'ralamoq”, “chakmoq”, “chalmoq”, “chaplamoq”, “chaplashmoq”, “chopishmoq”* kabi omoleksemalar “O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati”ga kiritilmagan.

## 1.2. Omoforma tipidagi omonimlar tahlili

### 1.2.1. Ikki turkum doirasidagi omoleksemalarning qiyosiy tahlili

Omoforma omoleksemalar deb o‘zaro ba’zi grammatik shakllaridagina teng keladigan omoleksemalarga aytiladi: *burun- I* (kishi tanasidagi a’zoning nomi) - *burun- II* (payt ravishi - ilgari), *soz- I* (musiqa asbobining nomi) –*soz-II* (yaxshi)kabi.

Birinchi juftda ot leksema bilan ravish leksema o‘zaro bir necha shaklida teng keladi (*burun I – burun II, burundan I – burundan II, burunlari I – burunlari II* kabi), lekin boshqa shakllarida farqlanib turadi: ot leksemada *burnim, burning, burnimni* kabi shakllanishlar voqe bo‘lsa, ravish leksemada *burunroq* kabi shakllanish voqe bo‘ladi, demak, bu ikki leksema faqat ayrim grammatik shakllaridagina teng keladi. Ikkinchi juftda esa ot leksema bilan sifat leksema o‘zaro ikki shaklida teng keladi (*soz- I – soz- II, sozlar I – sozlar II*), boshqa shakllarida esa farqlanib turadi: ot leksemada *sozni, sozim, sozlarimni* kabi shakllanishlar voqe bo‘lsa, sifat leksemada *sozroq, juda soz* kabi shakllanishlar voqebo‘ladi.

Yuqoridagi omoleksemalarning lug‘atga kiritilish shakllari bir xil, shunga ko‘ra ular lug‘atlarda hisobga olinadi. Omoforma omoleksemalar deb faqat shunday hodisalarnigina nazarda tutish yetarli emas: lug‘atga kiritish shakli har xil omoforma omoleksemalar chetda qolib ketadi. Vaholanki bularning mohiyati avvalgilari bilan bir xil. Masalan, *soz- I – soz- II* lug‘atda ko‘rsatiladi-yu, *tut- I* (daraxt turi va uning mevasi) – *tut- II* ( ushla ) holati umuman hisobga olinmaydi, chunki fe’l lug‘atga *-moq* affiksini qo‘shgan holatda (*tutmoq* shaklida) kiritiladi.

Omoforma omoleksemalar ot leksema bilan fe’l leksema orasida (Bular umumtil lug‘atida aks etmaydi), ot leksema bilan fe’ldan boshqa biror turkum leksemasi orasida voqe bo‘ladi.

Biz ushbu bobdagi tahlilimiz davomida 2 turkum doirasida shakllangan omoleksemalarni chastotasini tuzishga va ularni “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” asosida qiyosiy jihatdan farqlarini topishga va shu omonimlarni alfavit asosida tuzishga harakat qildik. Bu omoleksemalar quyidagilar:

“**A**” - adash-I (ismdosh) ot - adash-II (adashmoq) fe’l, aktiv- I (faol) sifat – aktiv-II (korxonalar mulki) ot, alla-I (qo‘shiq) ot – alla- II (qulamoq) fe’l, amin- I (ishonchli) sifat – amin- II (oqsoqol) ot, axir- I (nihoya) ot – axir-II (kuchaytiruv yuklamasi), aya- I (ona) ot – aya- II (ayamoq) fe’l , aymoq- I (urug‘) ot – aymoq- II (aytmoq) fe’l, azot- I (kimyoviy element) ot – azot- II (dast ko‘tarmoq) fe’l, avra- I (mato) ot – avra- II (avramoq) fe’l, ayni-I (xuddi shu) sifat – ayni- II (buzilmoq) fe’l, ari- I (hasharot) ot – ari- II (tugamoq) fe’l, achchiq- I (nordon) sifat - achchiq- II (jahl) ot, albatta- I (so‘zsiz) ravish – albatta- II modal so‘z, alomat- I (belgi) ot – alomat- II (o‘zgacha) sifat;

“**B**” - baqaloq- I (semiz) sifat – baqaloq- II (oyoq qismi) ot, bosma- I (yuk ko‘tarish qurilmasi) ot – bosma- II (nashrga oid) sifat, bo‘lak- I ot (qism) – bo‘lak- II (o‘zga) sifat, balo- I (ofat) ot – balo-II (uddaburon) sifat, bayzo- I (oppoq) sifat – bayzo-II (quyosh) ot, boz-I (lochin) ot – boz-II ( yana, tag‘in) ravish, bog‘liq- I (kanop ip) ot – bog‘liq- II (bog‘langan) sifat, bo‘g‘ma- I (kasallik) ot – bo‘g‘ma- II (harakat) fe’l, bit-I (hasharot) ot, bit-II (tugamoq) fe’l, bit-III (unmoq) fe’l, bit-IV (yozmoq) fe’l, burun-I (organ) ot, burun-II (geografik termin) ot, burun-III (cho‘yan moslama) ot, burun-IV (avval) ravish, bo‘z-I (mato) ot, bo‘z-II (maysa) ot, bo‘z-III (o‘smir) ot, bo‘z-IV (ekilmagan yer) ot, bo‘z-V (yig‘i) ot, bo‘z-VI (kulrang) sifat, band-I (bo‘sh emas) sifat, band-II (tutqich) ot, band-III (tugun) ot, band-IV (paragraf) ot, bas-I (yetar) undov so‘z, bas-II (ovoz) ot, bas-III (tortishuv) ot, but-I (organ) ot, but-II (budda) ot, but-III (butun) sifat;

“**D**” - dal-I (tut bargi) ot – dal-II (xuddi) ravish, dong-I (shuhrat) ot – dong- II (qotib uxlamoq) fe’l, do‘st-I (ulfat) ot – do‘st-II undov so‘z, daydi-I (darbadar) sifat – daydi-II (ko‘chib yurmoq) fe’l, dov-I (qimorga tikilgan pul) ot, dov-II



(dovyurak) sifat, dov-III (da'vo) ot, dov-IV (yirik) sifat, dov-V (daraxt) ot, dog'-I (isitilgan) sifat, dog'-II (alam) ot, dog'-III (iz) ot;

“E” - elchilik-I (elchi bo'lmoq) fe'l – elchilik-II (yurtchilik) ot, erish-I (nojo'ya) sifat – erish-II (erishmoq) fe'l, es-I (xotira) ot – es-II (esmoq) fe'l, et-I (go'sht) ot – et-II (harakat) fe'l, esh-I (hamroh) ot, esh-II (ip eshmoq) fe'l, esh-II (eshkak eshmoq) fe'l, erta-I (ertalab) ot, erta-II (kelasi kun) ot, erta-III (oldin) ravish;

“G” - gaz-I (modda) ot, gaz-II (gazlama) ot, gaz-III (yupqa) sifat;

“H” - hur-I (ozod) sifat, hur-II (go'zal) sifat, hur-III (hurmoq) fe'l;

“I” - ideal- I (ajoyib) sifat – ideal- II (g'oya) ot, ich- I (ichkari) ot – ich- II (ichmoq) fe'l;

“J” - jabr-I (algebra) ot – jabr-II (jabr qilmoq) fe'l, joy-I (makon) ot – joy-II (bafurja) ravish, juftak-I (qisqich) ot – juftak-II (qochib qolmoq) fe'l, jo'r-I (sayroqi qush) ot – jo'r-II (hamohang) sifat, jin-I (afsonaviy maxluq) ot, jin-II (paxta mashinasi) ot, jin-III (jiring tovush);

“K” - kapaki-I (poyabzal tagcharmi) ot – kapaki-II (kaftiga solib otmoq) fe'l, kez-I (muddat) ot – kez-II (kezmoq) fe'l, kengash-I (maslahat) ot – kengash-II (maslahatlashmoq) fe'l, kechik-I (suvdan kechib o'tiladigan sayoz joy) ot – kechik-II (kechikmoq) fe'l, kiy-I (bilyard cho'pi) ot – kiy-II (kiymoq) fe'l, kisht-I (shaxmat termini) ot – kisht- II (undov so'z), kul-I (olov qoldig'i) ot – kul-II (kulmoq) fe'l, kurash-I (sport turi) ot – kurash-II (kurashmoq) fe'l, kuy-I (navo) ot – kuy-II (kuymoq) fe'l, ko'r-I (basir) sifat – ko'r-II (harakat) fe'l, kunda-I (to'nka) ot, kunda-II (yog'och kishan) ot, kunda-III (har kuni) ravish, ko'ra-I (g'ovak joy) ot, ko'ra-II (o'choq) ot, ko'ra-III (ko'makchi);

“L” - lek-I (bog'lovchi) – lek-II (pul birligi) ot, liberal-I (murosasoz shaxs) ot – liberal-II (liberallarga oid) sifat, lippa-I (tola) ot – lippa-II (shartta) ravish, lozim-I (kerakli) sifat – lozim-II (kiyim turi) ot, luks-I (yuqori sifati) sifat – luks-II (yoritish o'lchov birligi) ot, laqqa-I (baliq) ot, laqqa-II (cho'g') ot, laqqa-III (osongina) ravish

“M” - mineral-I (kimyoviy element) ot – mineral-II (mineralga ega ) sifat;

“N” - nafis-I (latif) sifat – nafis-II (olma navi) ot, negativ-I (foto) ot – negativ-II (teskari, noto‘g‘ri) sifat, novcha-I (uzun) sifat – novcha-II (xizmatkor) ot, nozik-I (bejirim) sifat – nozik-II (nafis munchoq) ot, noziknihol-I (bejirim) sifat – noziknihol- II (manzarali o‘simlik) ot, no‘sh-I (piyoz) ot – no‘sh-II (ichmoq) fe‘l;

“O”- ol-I (qizil) sifat – ol-II (olmoq) fe‘l, olaqaroq-I (chala, siyrak) sifat – olaqaroq-II (mol kasali) ot, ovsar-I (esi pastroq) sifat – ovsar-II (tuya boshiga kiydiriladigan boshvoq) ot, ortiq-I (ziyod) sifat – ortiq-II (badanda o‘sib chiqqan joy) ot, oqin-I (oqadigan) sifat – oqin-II (baxshi) ot, oqish-I (oqimtir) sifat – oqish-II (oqmoq) fe‘l, oylik-I (oy mobaynida davom etadigan) sifat – oylik-II (maosh) ot, ochiq-I (yashirilmagan) sifat – ochiq- II (ochqamoq) fe‘l, ot-I (hayvon) ot, ot-II (ism) ot, ot-III (termin) ot, ot-IV (irg‘it) fe‘l, och-I (ochiqqan) sifat, och-II (kuchsiz, nimxush) sifat, och-III (ochmoq) fe‘l, osh-I (ovqat) ot, osh-II (teri oshlash moddasi) ot, osh-III (harakat) fe‘l, ort-I (orqa tomon) ot, ort-II (ko‘paymoq) fe‘l, ort-III (yuklamoq) fe‘l;

“P” - pay-I (elastik to‘qima) ot, pay-II (urinish) ot, pay-III (oyoq) ot, pay-IV (ulush) ot, pay-V (yerga yoymoq) fe‘l, po‘rsildoq-I (teridagi qavariq) ot, po‘rsildoq-II (o‘simlik) ot, po‘rsildoq-III (yumshoq) sifat, par-I (parranda pati) ot, par-II (bug‘) ot, par-III (juft) sifat, papa-I (yashirmoq) fe‘l – papa-II (cherkov rahbari), patir-I (yupqa non) ot – patir-II (taqlid so‘z), paxmoq-I (hurpaygan) sifat – paxmoq-II (qalin gazlama), payraha-I (qipiq) sifat – payraha-II (so‘qmoq) ot, perpendikular-I (chiziq) ot – perpendikular-II (tik tushgan) sifat, pesh-I (old tamon) sifat – pesh-II (darrov, peshma-pesh) ravish, pop-I (ruhoni) ot – pop-II (tovushga taqlid), port-I (kemalar to‘xtaydigan joy) – port-II (taqlid so‘z), pozitiv-I (fotosurat) ot – pozitiv-II (ijobiy) sifat, po‘k-I (ichi chirigan) sifat – po‘k-II (taqlid so‘z), passiv-I (korxonaning qarzlari) ot – passiv-II (loqayd) sifat;

“Q”- qazi- I (mahsulot) ot – qazi- II (kavlab olmoq) fe‘l, qalay- I (metall) – qalay- II (olmosh), qalb-I (pok qalbli) sifat – qalb-II (qallob) ot, qalin-I (qalin puli) ot, qalin-II (qalin kitob) sifat, qiyiq-I (qiya kesilgan) sifat – qiyiq-II (belbog‘) ot,

qisir-I (tug‘olmaydigan) sifat – qisir-II (taqlid so‘z), qozon-I (cho‘yan idish) ot – qozon-II (qo‘lga kiritmoq), qon-I (tomirdagi qon) ot – qon-II (qoniqmoq) fe‘l, qop-I (xalta) ot – qop-II (qopmoq) fe‘l, qor-I (yog‘in) ot – qor-II (qormoq) fe‘l, qo‘zi-I (qo‘zichoq) ot – qo‘zi-II (qo‘zg‘amoq) fe‘l, qadar-I (ko‘makchi) – qadar-II (qismat) ot, qasir-I (esi past) sifat – qasir-II (taqlid so‘z), qayir-I (daryo toshganda suv bosadigan joylar) ot – qayir-II (qayirmoq) fe‘l, qil-I (soch tolasi) ot – qil-II (ro‘yobga keltirmoq) fe‘l, qix-I (kir, iflos) sifat – qix-II (taqlid so‘z), qishloqcha-I (kichik qishloq) ot – qishloqcha-II (qishloqcha odat) sifat, qulcha-I (kichik qul) ot – qulcha-II (qullarcha) ravish, qum-I (qurilish xomashyosi) - qum-II (rangi o‘chmoq) fe‘l, quymoq-I (pishiriq) ot – quymoq-II (harakat) fe‘l, qo‘ng‘ir-I (to‘q malla) sifat – qo‘ng‘ir-II (o‘rdak turi) ot, qo‘y-I (hayvon) ot – qo‘y-II (harakat) fe‘l, qadoq-I (og‘irlik o‘lchovi) ot, qadoq-II (qadoqlangan) sifat, qadoq-III (ma‘lum miqdordagi choy, qand) ot, qadoq-IV (teri parchasi) ot, qayish-I (charm tasma) ot, qayish-II (xamir ovqat) ot, qayish-III (yon bosmoq) fe‘l, qir-I (baland tekis yer) ot, qir-II (uchli joy) ot, qir-III (qurilish xomashyosi) ot, qir-IV (qirmoq) fe‘l;

“**R**”- rasad-I (astronomik kuzatish) ot – rasad-II (o‘tqazmoq) fe‘l, rasta-I (yetuk) sifat – rasta-II (qator) ot, razm-I (nazar solmoq) fe‘l – razm-II (urush, jang) ot, romantik-I (romantizm vakili) ot – romantik-II (romantikaga oid) sifat, rost-I (to‘g‘ri) sifat – rost-II (maqom nomi) ot, reaktiv-I (modda) ot – reaktiv-II (sifat), radikal-I (radikalizm tarafdori)ot, radikal-II (matematikada ildiz chiqarish belgisi) ot, radikal-III (keskin) sifat, rom-I (fol ochish) ot, rom-II (deraza qismi) ot, rom-III (ichimlik) ot, rom-IV (jalb qilmoq) fe‘l;

“**S**”- sana-I (yil hisobi) ot – sana-II (sanamoq) fe‘l , sanjob-I (tazyiq) ot – sanjob-II (siyrak) sifat, sariq- I (rang) sifat – sariq-II (qabila nomi) ot, sariq-III (kasallik) ot, sep-I (kelinning bisoti) ot – sep- II (sepmoq) fe‘l, siyoh-I (qora) sifat – siyoh-II (avzo, ko‘rinish) ot, sol-I (qayiq turi) ot – sol-II (biror narsaga joylamoq) fe‘l, sog‘in-I (sog‘iladigan) sifat – sog‘in-II (sog‘inmoq), sochiq-I (sochilgan) sifat – sochiq- II (yuz-qo‘l, idish-tovoq artish uchun ishlatiladigan buyum) ot,

statsionar-I (davolash maskani) ot – statsionar-II (ko‘chmas) sifat, suq-I (ochko‘z) sifat – suq- II (sanchmoq) fe‘l, suveren-I (mustaqil oliy hokimiyat egasi) ot – suveren-II (mustaqil) sifat, sug‘ur-I (sug‘urmoq) fe‘l – sug‘ur-II (hayvon) ot, sovuq-I (harorati past) sifat – sovuq-II (atmosferaoning past temperaturali holati, ayoz) ot, sir-I (bo‘yoq) ot, sir-II (asror) ot, sir-III (pishloq), sir-IV (harakat) fe‘l, soch-I (tola) ot, soch-II (qush) ot, soch-III (sochmoq) fe‘l;

“T”- taktik-I (mohir taktikachi) ot – taktik-II (taktikaga oid) sifat, talon-I (talamoq) sifat – talon-II (nazorat varaqchasi) ot, tamtam-I (kelishgan, zebo) sifat – tamtam-II (musiqa asbobi) ot, tark-I (voz kechmoq) fe‘l – tark-II (bukilgan joy) ot, taxt-I (o‘rindi) ot – taxt-II (tayyor, muhayyo) sifat, ter-I (suyuqlik) ot – ter-II (yig‘moq) fe‘l, tin-I (nafas) ot – tin-II (tinmoq) fe‘l, tirnoqcha-I (kichik tirnoq) ot – tirnoqcha-II (ozgina) ravish, ton-I (tovush kuchi) ot – ton-II (tonmoq) fe‘l, topishmoq-I (jumboq) ot - topishmoq-II (uchratmoq) fe‘l, topqir-I (guruh) ot – topqir-II (topag‘on) sifat, tong-I (sahar) ot – tong-II (dong qotib qolmoq) fe‘l, tufayli-I (tekinxo‘r) ot – tufayli-II (ko‘makchi), tut-I (meva) ot – tut-II (tutmoq) fe‘l, tuyg‘un-I (sezgir) sifat – tuyg‘un-II (qirg‘iy) ot, tuzuk-I (durust) sifat – tuzuk-II (qonunlar to‘plami) ot, to‘la-I (to‘lgan) sifat – to‘la- II (to‘lamoq), to‘q-I (ovqatlangan) sifat – to‘q-II (tovush), to‘qol-I (shoxsiz) sifat – to‘qol-II (ikkinchi xotin) ot, to‘s-I (po‘stloq) ot – to‘s-II (to‘smoq) fe‘l, to‘y-I (qoniqmoq) fe‘l – to‘y-II (bazzm yig‘ini) ot, to‘zg‘oq- I (to‘zg‘igan) sifat – to‘zg‘oq-II (parsimon popuk) ot, tanish-I (bilib olmoq, tanimoq) fe‘l – tanish-II (ilgaridan ko‘rgan) sifat, tutash-I (bir-biriga ulanib ketgan) sifat – tutash-II (tutashmoq) fe‘l, til-I (inson a‘zosi) ot, til-II (aloqa vositasi) ot, til-III (tilmoq) fe‘l, tor-I (ensiz) sifat, tor-II (cholg‘u asbobi) ot, tor-III (dutor ipi) ot, toy-I (ot bolasi) ot, toy-II (paxta o‘rami) ot, toy-III (toymoq) fe‘l, tosh-I (tog‘ jinsi) ot, tosh-II (uzunlik o‘lchovi) ot, tosh-III (toshmoq) fe‘l, tur-I (xil, nav) ot, tur-II (sport atamasi) ot, tur-III (turmoq) fe‘l, tuz-I (kristall) ot, tuz-II (karta donasi) ot, tuz-III (tekis yer) ot, tuz-IV (tuzmoq) fe‘l, tush-I (payt) ot, tush-II (uyqudagi holat) ot, tush-III (bo‘yoq) ot, tush-IV (tushmoq) fe‘l;

“U”- universal-I (har taraflama) sifat – universal-II (traktor turi) ot, ushuk-I

(sovuq) sifat – ushuk-I (ertak) ot, uy-I (bino) ot – uy-II (to‘plamoq) fe’l, ustun-I (tik tayanch yog‘och) ot – ustun-II (kuchli) sifat, uchuq-I (labdagi toshma) ot – uchuq-II (cheti singan) sifat, un-I (mahsulot) ot, un-II (tovush) ot, un-III (unmoq) fe’l;

“**X**”- xayr-I (sadaqa) ot – xayr-II (undov so‘z), xo‘rda-I (mastava) ot – xo‘rda-II (tekis), xor-I (gul tikani) ot, xor-II (ashulachilar jamoasi), xor-III (bechora) sifat;

“**Y**”- yara-I (jaro hat) ot – yara-II (yaramoq) fe’l, yangi-I (toza) sifat – yangi-II (hozirgina) ravish, yemak-I (ovqat) ot – yemak-II (yemoq) fe’l, yer-I (zamin) ot – yer-II (yemoq) fe’l, yetmak-I (ildiz) ot – yetmak-II (yetmoq) fe’l, yopiq-I (bekik) sifat – yopiq-II (ot yopin chig‘i) ot, yot-I (begona) sifat – yot-II (yotmoq) fe’l, yoy-I (kamon) ot – yoy-II (yoymoq) fe’l, yoziq-I (gunoh) ot – yoziq-II (yoyilgan) sifat, yog‘-I (moy) ot – yog‘-II (yog‘moq) fe’l, yupqa-I (qalin emas) sifat – yupqa-II (ovqat) ot, yuq-I (yuqmoq, iflos qilmoq) fe’l – yuq-II (qoldiq), yel-I (shamol)ot, yel-II (kasallik) ot, yel-III (esmoq) fe’l, yon-I (taraf) ot, yon-II (yoqilmoq), yon-III (qaytmoq) fe’l, yoq-I (tomon) ot, yoq-II (yondirmoq) fe’l, yoq-III (yoqtirmoq) fe’l, yoz-I (fasl) ot, yoz-II (yoymoq) fe’l, yoz-III (qog‘ozga bitmoq), yoz-IV (adashmoq) fe’l;

“**Z**”- zil-I (juda og‘ir) sifat, zil-II (og‘ir botadigan) sifat, zil-III (musiqa asbobi) ot;

“**O**”- o‘tar-I (o‘tmoq) fe’l – o‘tar-II (poda) ot, o‘tin-I (yog‘och) ot – o‘tin-II (yalinmoq) fe’l, o‘sma-I (o‘simlik) ot – o‘sma-II (harakat) fe’l, o‘z-I (olmosh) – o‘z-II (oldinga o‘tib olmoq) fe’l, o‘ra-I (chuqurlik) ot – o‘ra-II (qurshamoq) fe’l, o‘t-I (olov) ot, o‘t-II (o‘simlik) ot, o‘t-III (achchiq suyuqlik) ot, o‘t-IV (harakatda bo‘lmoq) fe’l, o‘t-V (kesmoq) fe’l, o‘ta-I (juda) ravish, o‘ta-II (bajarmoq) fe’l, o‘ta-III (o‘tlardan tozalamoq) fe’l, o‘y-I (xayol) ot, o‘y-II (chuqurcha hosil qilmoq) fe’l, o‘y-III (burab olmoq) fe’l;

“**G**”- g‘ash-I (noxush) sifat, g‘ash-II (injiq) sifat, g‘ash-III (dushman) ot;

“**Sh**”- shablon-I (andoza) ot – shablon-II (siyqasi chiqqan) sifat, shaharcha-I

(kichik shahar) ot – shaharcha-II (shaharliklarga xos) sifat, sharq-I (dunyo tomoni) ot – sharq-I (taqlid so‘z), sharqiy-I (sharqdagi) sifat – sharqiy-II (marsh qo‘shig‘i) ot, sharr-I (yomonlik) ot – sharr-II (taqlid so‘z), shay-I (tayyor) sifat – shay-II (narsa, predmet) ot, shag‘al-I (mayda tosh) ot – shag‘al-II (kayfi baland) sifat, shil-I (firibgar) ot – shil-II (shilmoq) fe‘l, shir-I (sut) ot – shir-II (taqlid so‘z), shovul-I (o‘simlik) ot – shovul-II (juda ko‘p) ravish, sho‘rak-I (sho‘r) sifat – sho‘rak-II (cho‘l o‘simligi) ot, shar-I (geometrik jism) ot – shar-II (taqlid so‘z), ship-I (shift) ot – ship-II (taqlid so‘z), shish-I (bo‘rtma) ot – shish-II (shishmoq) fe‘l, shim-I (kiyim) ot – shim-II (harakat) fe‘l;

“**Ch**”-chakki-I (yomon) sifat – chakki-II (tomchi) ot, chars-I (o‘jar, betgachopar) sifat – chars-II (taqlid so‘z), chayir-I (pishiq) sifat – chayir-II (o‘simlik) ot, chil-I (ov qushi) ot – chil-II (qirq) son, chin-I (rost) ot – chin-II (millat) ot, chin-III (aniq) sifat, chippak-I (shippak) ot – chippak-II (yo‘qqa chiqarmoq) fe‘l, chiq-I (chiqmoq) fe‘l – chiq-II (taqlid so‘z), chirish-I (chirimoq) fe‘l – chirish-II (suhbat, o‘tirish), chirk-I (qotgan yog‘) ot – chirk-II (taqlid so‘z), chirmov-I (chirmamoq) fe‘l – chirmov-II (o‘simlik) ot, chirt-I (shartta) ravish – chirt-II (taqlid so‘z), chitir-I (yovvoyi o‘simlik) ot – chitir-II (taqlid so‘z), chor-I (to‘rt) son – chor-II (podshoh) ot, chochiq-I (sochiq) ot – chochiq-II (sochilgan) sifat, chumak-I (jo‘mrak) ot – chumak-II (qizarmoq) fe‘l, chuvak-I (oriq) sifat – chuvak-II (shippak) ot, chalg‘i-I (o‘roq) ot – chalg‘i-II (chalg‘imoq) sifat, chaman-I (gulzor) ot – chaman-II (sustkash, zo‘rg‘a harakat qiladigan) sifat, chaqir-I (uchli, qirrali) sifat – chaqir-II (chaqirmoq, taklif qilmoq) fe‘l, chuqur-I (cho‘nqir) sifat – chuqur-II (chuqurlik) ot, chaqmoq-I (yashin) ot, chaqmoq-II (o‘t oldirish asbobi) ot, chaqmoq-III (telpak) ot, chaqmoq-IV (qand) ot, chaqmoq-V (urib yormoq) fe‘l, chaqmoq-VI (tishlab og‘ritmoq), chag‘ir-I (chog‘ir) ot, chag‘ir-II (kulrang) sifat, chag‘ir-III (o‘tkir qirrali) sifat, chuv-I (arava qismi) ot, chuv-II (qimorda yutqizilgan holat) ot, chuv-III (undov so‘z);

Demak, ushbu omoleksemalarni alfavitdagi harflar asosida o‘rganib chiqishimiz natijasida, “g”, “h”, “m”, “z”, “g” harflariga doir 1 ta, “i” harfiga

doir 2 ta, “x” harfiga doir 3 ta, “j” harfiga doir 5 ta, “e”, “l”, “n”, “u” harflariga doir 6 ta, “d” harfiga doir 7 ta, “r” va “o” harflariga doir 8 ta, “k” harfiga doir 12 ta, “o” harfiga doir 13 ta, “a”, “b”, “p” harflariga doir 14 ta, “s” va “ch” harflariga doir 15 ta, “y” harfiga doir 16 ta, “ch” harfiga doir 23 ta, “q” harfiga doir 25 ta, “t” harfiga doir omonimlar soni 31 ta bo‘lib, jami 254 ta omoleksemalarni aniqladik. Ushbu ikki turkum doirasidagi omonimlarning ko‘pchilik qismi ikki leksema doirasida farqlanuvchi omonimlar bo‘lib, ma’lum bir qismini uch, to‘rt, besh va olti leksemadagi omonimlar tashkil qiladi. Yuqorida keltirilgan 254 ta omoleksemalardan 119 tasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da ifodalanmagan.

## 1.2.2. Uch va undan ortiq turkum doirasidagi omoleksemalarning qiyosiy tahlili.

Ushbu bobdagi tahlilimiz uch va undan ortiq turkum doirasidagi omoleksemalarning qiyosiy tahliliga qaratilib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dagi omonimlarning farqli tomonlarini tekshirishga qaratiladi. Ular quyidagilar:

### “Bez” so‘zi 3 turkum doirasida qo‘llaniladi.

Bez-I (yog‘ ichidagi to‘qima) ot, bez-II (bezbet) sifat, bez-III (bezmoq) fe’l

Misol, *qalqonsimon bezlar. Limfa bezlari. Til osti bezlari.* (ot so‘z turkumi)

“Bag‘ri toshlar bez bo‘lib o‘tiribdilar. Men kimga kerak, kimga?” – dedi Botirov onasiga. Bahrom Rahmonov, Oltin odamlar.<sup>8</sup> (sifat so‘z turkumi)

“Zolim podshodan bezdik, o‘laqolsin u !” – deb qichqirishdi xotinlar. Oybek, Qutlug‘ qon.<sup>9</sup> (fe’l so‘z turkumi)

### “Dim” so‘zi 3 turkum doirasida qo‘llaniladi.

Dim-I (sukut) ot, dim-II (issiq) sifat, dim-III (ravish)

“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “dim” so‘zi ot, predikativ so‘z, ravish turkumlarida qo‘llanilgan (sukut – butunlay, also – predikativ so‘z), “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa (sukut - aslo - juda issiq) ma’nolarida qo‘llanilgan.

*Dim! Og‘zingizni parishon qilmay sabr qilib tursangiz, shu hafta ichida bo‘ladi-qoladi.* Hamza Hakimzoda, Maysaraning ishi.<sup>10</sup> (ot so‘z turkumi)

*Hozir havo dim, teraklar qotib qolganday turardi, yaproqlar qilt etmasdi.* Sharof Rashidov, Qudratli to‘lqin.<sup>11</sup> (predikativ so‘z)

*Dim ularga qaray ko‘rma, chirog‘im.* “Ravshan” (ravish)

*Hammomdagiday gup etib, yuzimga dim havo urildi.* H. Nazir, Yonar daryo.<sup>12</sup>

<sup>8</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 27-б

<sup>9</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 27-б

<sup>10</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 52-б

<sup>11</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 52-б

<sup>12</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-tom. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 619-б



(sifat)

### **“Yo” so‘zi 3 turkum doirasida qo‘llaniladi.**

Yo-I (harf) ot, yo-II (yoy) ot, yo-III (undov so‘z), yo-IV (bog‘lovchi)

“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da undov so‘z, ayiruv bog‘lovchisi va harf nomi sifatida qo‘llanilgan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa “yo” omonimining “yoy” ma’nosidagi shakli ham mavjud.

Misol, *Munchalik g‘am, munchalik mungni Bitta jonim qayga jo qilar? Shunchalikda bandaning ko‘ngli, Qachongacha qaddin yo qilar?* U. Nosir, Yurak.<sup>13</sup> (yoy ma’nosida)

*Yo amiral-muslimin, tag‘in ko‘zingizga zarar yetkazasin.* A.Qahhor, Ko‘r ko‘zning ochilishi.<sup>14</sup> (undov so‘z)

*Qayerdadir birov yo simga qoqildi, yo uni bir nima qilayotir.* A.Qahhor, Oltin yulduz.<sup>15</sup> (ayiruv bog‘lovchisi)

### **“Kech” so‘zi 3 turkum doirasida qo‘llaniladi.**

Kech-I (kechqurun) ot, kech-II (kechroq) ravish, kech-III (kechmoq) fe‘l

Misol, *Ammo Dildor tamoman boshqa olam. Bobosiga mehribon,...o‘ta mehnatkash, erta-yu kech tinib-tinchimaydigan qiz.* Hamid G‘ulom, Binafsha atri.<sup>16</sup> (ot so‘z turkumi)

*Aziz armiyadan kech kuzda qaytib keldi.* Hamid G‘ulom, Binafsha atri. (ravish)

*O‘zing ham boshingdan kechgan barcha og‘ir-yengil ishlar to‘g‘risida hech kimga aytganing yo‘q-da.* Sh.Rashidov, Qudratli to‘lqin. (fe‘l)

### **“Kir” so‘zi 3 turkum doirasida qo‘llaniladi.**

Kir-I (ifloslangan) sifat, kir-II (ifloslangan kiyim) ot, kir-III (harakat) fe‘l

“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da ot va fe‘l so‘z turkumi doirasida qo‘llanilgan bo‘lsa, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ot, sifat va fe‘l turkumlaridagi shakllari mavjud.

---

<sup>13</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 22-b

<sup>14</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,22-b

<sup>15</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 22-b

<sup>16</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 77-б

Misol, *Pul nima – qo‘lning **kiri***. Hamid G‘ulom, Binafsha atri. (ot)

*Yo‘lchi uning boshini **kir** yostiqa ohista qo‘ydi*. Oybek, Tanlangan asarlar.<sup>17</sup>  
(sifat)

*Qibray qishlog‘i guzaridan chapga burilinsa, yangi asfaltlangan torgina yo‘lga **kiriladi***. (fe‘l)

### “Oshiq” so‘zi 3 turkum dirasida qo‘llaniladi.

Oshiq-I (suyak) ot, oshiq-II (sevuvchi) ot, oshiq-III (ziyod) sifat, oshiq-IV (oshiqmoq) fe‘l

“Oshiq” omoleksemasining “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da “suyak”, “ziyod” va “oshiqmoq” kabi ma‘nolari izohlangan, shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “sevuvchi” ma‘nosi ham mavjud.

Misol, *Muhabbat dardiga mubtalo **oshiq**, Senga havas bilan boqurman chindan*.

A.Oripov, Yillar armoni. (ot)

*Mening yoshligimda birga **oshiq** o‘ynab, yaxmalak otib o‘sgan bir og‘aynim bor*.  
Shukrullo, Saylanma (ot)

*Konsertga yuzdan **oshiq** odam keldi*. (sifat)

*Nega buncha **oshiqasan?***(fe‘l)

### “Oq” omoleksemasi 4 turkum doirasida qo‘llaniladi.

Oq-I (rang) sifat, oq-II (bo‘ysunmas) sifat, oq-III (oqmoq) fe‘l, oq-IV (yuklama)

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “rang”, “bo‘ysunmas”, “oqmoq” ma‘nolarida va yuklama vazifasida ham qo‘llanilgan.

Misol, *Musobaqaga hozirdanoq tayyorlanmoq kerak*. (yuklama)

*(Kumushning) ..yoqutdek lablari ostidagi sadaf kabi **oq** tishlari biroz ko‘rinib qo‘ydilar*. A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. (sifat)

*G‘iyosiddin Buxoroning Devonbegi madrasasida tahsil ko‘rib o‘qib yurgan paytlarida otasi uni **oq qiladi***. Said Ahmad, Hukm.

*Ko‘zning **oqi**, tuxumning **oqi***. (ot)

---

<sup>17</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,371-b

*Yaradan qon oqishi to 'xtadi.* (fe'l)

**“Sira” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo‘llaniladi.**

Sira-I (mutlaqo) ravish, sira-II (izchil qator) ot, sira-III (sifat)

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ravish va ot turkumlarida ifodalangan “mutlaqo” va “izchil qator” ma’nolari mavjud bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da esa sifat turkumida qo‘llanilgan “aniq, to‘g‘ri” kabi ma’no qirralari ham mavjud.

Misol, *U o‘tirganlardan sira tap tortmasdan she’rini baland ovoz bilan yoddan o‘qidi.* K.Yashin, Hamza (ravish)

*U bolalarni orqama-orqa to‘rt siradan qatorlashtirib, har xil mashqlar qildirdi.* P.Tursun, O‘qituvchi. (ot)

*Mayli, shunchaki sirasini aytdim, men butunlay boshqa ish bilan keluvdim.* Sh.Rashidov, Bo‘rondan kuchli.( sifat)

**“Soz” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo‘llaniladi.**

Soz-I (cholg‘u asbobi) ot, soz-II (ajoyib) sifat, soz-III (qamish, qamishzor) ot, soz-IV (sozmoq) fe‘l

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ajoyib” (sifat), “cholg‘u asbobi” (ot), “qamish,qamishzor” (ot) ma’nolari mavjud bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da esa “sozlangan holat, garmoniya”( ot) ma’nosi ham uchraydi.

Misol, *Soz chertmoq* (ot)

*Sozini to‘g‘irlamoq, sozi buzilibdi.* (ot)

*Bu gulshan soz edi, soz ustiga soz etgali keldik. Qadrdonlarni shod aylab, sarafroz etgali keldik.* Habibiy, Tanlangan asarlar (sifat)

**“Sur ”omoleksemasi 3 turkum doirasida qo‘llaniladi.**

Sur-I (to‘q kulrang) sifat, sur-II (surbet) sifat, sur-III (quritilgan) sifat, sur-IV (salobat) ot, sur-V (karnay) ot, sur-VI (surmoq) fe‘l

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “to‘q kulrang” (sifat), “bez, surbet” (sifat), “salobat” (ot), “karnay” (ot) va “quritilgan” (sifat) ma’nolari mavjud bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “qorako‘l navi” (ot), “siljitmoq”

(fe'l) kabi ma'nolari ham kiritilgan.

Misol, *Egnida sur rang kolomenko ko'ylak, belida qayish kamar.* O.Yoqubov, Er boshiga ish tushsa. (sifat)

*Nigoraning ko'z oldiga Yoqutoyimning tuxumday tig'iz gavdasi-yu, pardoz-andoz qilgan sur basharasi keldi.* S.Anorboyev, Oqsoy (sifat)

*Umrida hali biror marta hayfsan olmagan, beozor Saidxonni prokurorning suri bosib qoldi.* (ot)

*Sur go'sht, sur baliq.* (sifat)

*Bu yil sur ko'p tayyorlandi.* (ot)

*Stulingizni biroz chapga suring.* ( fe'l)

### **“Tik” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo'llaniladi.**

Tik-I (mato) ot, tik-II (tikka) sifat, tik-III (tikmoq) fe'l, tik-IV (nerv kasalligi) ot

“O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati”da “mato” (ot), “tikka” (sifat) va “tikmoq” (fe'l) ma'nolarida qo'llanilgan, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da esa “nerv kasalligi” ma'nosi ham izohlangan.

Misol, *Faqat, sohil tik bo'lgani uchun, aravalarni olib chiqish benihoyat qiyin edi.* Oybek, Quyosh qoraymas. (sifat)

*Tikdan bir xilda tikilgan kiyim kiygan, madori ketgan yaradorlar hovliga chiqishdi.* R.Fayziy Hazrati inson (ot)

*Ekspeditsiyalar samolyot uchun o'zlaricha qulay joy tanlab, kichkina bayroqcha tikib qo'ygan ekan.* Oydin, Uyaldi shekilli, yerga qaradi. (fe'l)

### **“Tom” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo'llaniladi.**

Tom-I (uyning tepasi) ot, tom-II (to'liq) sifat, tom-III (jild) ot, tom-IV (tommoq) fe'l

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da “uyning tepasi” (ot), “to'liq” (sifat), “jild” (ot) va “tommoq” ( fe'l) ma'nolari izohlangan bo'lib, “O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati”da esa “jild” ma'nosi ifodalanmagan.

Misol, *Hov anavi – maktabi, tomini yopib qo'yibdi.* H.G'ulom, Binafsha atri (ot)

*Mufti... kitobining chizgan rejalarini amalga oshirishga tom ixlos bilan ko'ndi.*

A.Hakimov, Ilon izidan. (sifat)

**Toma-toma** ko'l bo'lur, hech tommasa, cho'l bo'lur. ( fe'l)

Lug'atning birinchi **tomi**. (ot)

**“Tush” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo'llaniladi.**

Tush-I (peshin, payt) ot, tush-II (bo'yoq) ot, tush-III (uyqudagi holat) ot, tush-IV (harakat) fe'l, tush-V (teng) sifat

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da “peshin, payt” (ot), “uyqudagi holat” (ot), “bo'yoq” (ot), “tushmoq” (fe'l) ma'nolari mavjud bo'lib, “O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati”da esa “teng” (sifat) ma'nosi ham uchraydi.

Misol, *Dildorning shahardagi ishlari tushgacha bitdi.* H.G'ulom, Binafsha atri (ot)

**Tush** ko'rmoq, **tushiga** kirmoq, **tushida** ko'rmoq. (ot)

Tog'dan **tushmoq**, yerto'laga **tushmoq**. (fe'l)

*Qani edi u... qahramon bo'lish sirlarini bila qolsa, yeng shimarib ishga tushsa!*

*Teng-tushlaridan avval maqsadiga erishsa.* I. Rahim, Xislat (sifat)

**“Uloq” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo'llaniladi.**

Uloq-I (ulanadigan) sifat, uloq-II (echki bolasi) ot, uloq-III (yamoq) ot, uloq-IV (uzoqlashib ketmoq) fe'l

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da “ulanadigan” (sifat) va “echki bolasi” (ot) ma'nolari izohlangan bo'lib, “O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati”da “uzoqlashib ketmoq” (fe'l) va “yamoq” (ot) ma'nolari ham mavjud.

Misol, **uloq** arqon, **uloq** yeng. (sifat)

Hozir yuzlab mayin junli qo'zi va **uloqqa** egamiz. (ot)

*Ipda tizilib, munchoqlari uzilib, bir xili qochdi uloqib.* “Ravshan” (fe'l)

*Yana o'sha ulog'i yirtilibdi.* (ot)

**“Un” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo'llaniladi.**

Un-I (ovoz) ot, un-II (mahsulot) ot, un-III (o'smoq) fe'l, un-IV (olmosh)

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da “mahsulot” (ot), “ovoz” (ot) va “o'smoq” (fe'l) ma'nolari mavjud bo'lib, “O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati”da

olmosh soʻz turkumida qoʻllangan shakli ham uchraydi.

Misol, *bugʻdoy uni, arpa uni.* (ot)

*Anchadan soʻng itlarning uni oʻchdi.* S.Anorboyev, Oqsoy. (ot)

*Oradan koʻp vaqt oʻtmadi, yangi nav unib chiqdi.* N.Safarov, Don. (feʻl)

**“Uch” omoleksemasi 3 turkum doirasida qoʻllaniladi.**

Uch-I (raqam) son, uch-II (qirra) ot, uch-III (uchmoq) feʻl, uch-IV (yoqilgan choʻp) ot

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “raqam” (son), “qirra” (ot), “yoqilgan choʻp” (ot), “uchmoq” (feʻl) maʼnolari izohlangan boʻlib, “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”da esa “yoqilgan choʻp” maʼnosiga izoh berilmagan.

Misol, *uch kishi, uch kilogramm* (son)

*Roʻmolning uchi, qalamning uchi, arqonning uchi.* (ot)

*Uch oʻramoq, uch yoqmoq.* (ot)

*Qush uchsa, qanoti kuyadi.* (feʻl)

**“Chuv” omoleksemasi 3 turkum doirasida qoʻllaniladi.**

Chuv-I (arava qismi) ot, chuv-II (qimorda yutqizilgan holat) ot, chuv-III (taqlid soʻz), chuv-IV (undov soʻz)

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “arava qismi” (ot), “qimorda yutqizilgan holat” (ot) maʼnolarida, shuningdek, undov soʻz shaklida ham qoʻllanilgan boʻlib, “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”da esa taqlid soʻz sifatida ifodalangan shakli ham mavjud.

Misol, *Ahmadjon aka, juda qaltis ish-da.. Bir chuvingiz chiqsa bormi – bu yogʻingiz – raykom, bu yogʻingiz – prokuror-a!* A.Qahhor, Qaltis hazil. (ot)

*Ochiq koʻksiga urib, Oshiq otadi. Chuv tushib nechalar, Kayf tarqatadi.* Gʻayratiy. (ot)

*Otliqlar gaplashmas, faqat har zamon otga shilt qamchi bosib, “chuv” deb qoʻyishardi.* Mirmuhsin, Choʻri. (undov)

*Qiy-chuv, chagʻir-chugʻur quloqni kar qiladi.* Oybek, Qutlugʻ qon. (taqlid)

**“Oʻng” omoleksemasi 3 turkum doirasida qoʻllaniladi.**

O‘ng-I (tomon) sifat, o‘ng-II (voqe holat) ot, o‘ng-III (narsaning sirti) ot, o‘ng-IV (qulay), o‘ng-V (rangini yo‘qotmoq) fe‘l

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “tomon, chapning aksi”, “voqe holat”, “narsaning sirti” ma‘nolari mavjud bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da esa “qulay”, “rangini yo‘qotmoq” ma‘nolari ham uchraydi.

Misol, **o‘ng qo‘l**, **o‘ng ko‘z**. (sifat)

*Aziz Nafisani ko‘rdi-yu, hushini yo‘qotib qo‘yishiga oz qoldi. “Yopiray, tushimmi, o‘ngimmi!” – deb yubordi.* H. G‘ulom, Binafsha atri. (ot)

*Ko‘ylakning o‘ngini ag‘darmoq.* (ot)

*Bu yo‘l menga o‘ng emas.* (sifat)

*Yuvsam, o‘ngib ketdi. Bu material hech o‘ngmaydi.* (fe‘l)

**“O‘ch” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo‘llanadi.**

O‘ch-I (qasd) ot, o‘ch-II (hirs qo‘ygan) sifat, o‘ch-III (o‘chmoq) fe‘l

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “qasd”, “hirs qo‘ygan”, “o‘chmoq” ma‘nolari izohlangan.

Misol, *Nima, menda o‘ching bormi?* (ot)

*Shirinlikka o‘ch bola, pulga o‘ch kishi, molga o‘ch xotin.* (sifat)

*Yonishdan to‘xtamoq, olov o‘chdi.* (fe‘l)

**“Qiziq” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo‘llaniladi.**

Qiziq-I (qizigan havvo) ot, qiziq-II (qiziqarli) sifat, qiziq-III (qiziqmoq) fe‘l

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “qizigan havvo”, “qiziqarli” va “qiziqmoq” ma‘nolari izohlangan.

Misol, *kunning qizig‘ida yo‘lga chiqmoq* (ot)

**Qiziq hikoya, qiziq voqea, qiziq savol.** (sifat)

*Ahmadjon qiziqib Azizadan so‘radi.* H. G‘ulom, Binafsha atri. (fe‘l)

**“Qirq” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo‘llaniladi.**

Qirq-I (raqam) son, qirq-II (qabila nomi) ot, qirq-III (qirqmoq) fe‘l, qirq-IV (marosim) ot

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “o‘nlik” (son), “qabila nomi” (ot), va

“qirqmoq” ma’nolari mavjud bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da esa “marosim” (ot) ma’nosi ham uchraydi.

Misol, **Qirqiga** chidagan qirq biriga ham chidaydi. (son)

*Yo‘ldosh motamsaro. Onasining janozasi, yigirmasi, qirqi, xatm qur‘on deb ancha chiqimdor bo‘lgan o‘xshaydi.* S. Anorboyev, Mehr. (ot)

*Hov mulla Ahmadjon! Toldan istak qirqib keling, tokni bog‘laymiz!* H. G‘ulom, Binafsha atri. (fe‘l)

### “Qoq” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo‘llanadi.

Qoq-I (qurigan) sifat, qoq-II (xuddi) ravish, qoq-III (qoqmoq) fe‘l.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “qurigan” (sifat), “xuddi” (ravish) va “qoqmoq” (fe‘l) ma’nolari izohlangan.

Misol, **Qoq non, qoq go‘sh.** (sifat)

*Hovlining qoq o‘rtasida, qoq peshinda.* (ravish)

*Eshikni qoqmoq, nog‘ora qoqmoq.* (fe‘l)

### “Quv” omoleksemasi 4 turkum doirasida qo‘llanadi.

Quv-I (mug‘ambir) sifat, quv-II (oqqush) ot, quv-III (rangi oqarmoq) fe‘l, quv-IV (haydamoq) fe‘l, quv-V(butunlay) ravish, quv-VI (maxsus pilik) ot

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “mug‘ambir” (sifat), “oqqush” (ot), “rangi oqarmoq” (fe‘l), “haydamoq” (fe‘l), “maxsus pilik” (ot) ma’nolari mavjud bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “butunlay” (ravish) ma’nosi ham uchraydi, “maxsus pilik” ma’nosi esa “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da ifodalanmagan.

Misol, **quv odam, quv yigit.** (sifat)

**Quv quv bilan uchadi, g‘oz g‘oz bilan ko‘chadi.** Maqol (ot)

*Rahimning rangi quv o‘chib, g‘iq etmay qoldi.* H. Nazir, So‘nmas chaqmoqdar. (ravish)

*Kelgan elchini quvib yubormoq.* (fe‘l)

*Chaqmog‘iga quv olib, Yo‘lga tushdi Hasan mard.* “Ravshan” (ot)



### **“Qur” omoleksemasi 4 turkum doirasida qo‘llanadi.**

Qur-I (qush) ot, qur-II (marta) ot, qush-III (maydon, davra) ot, qur-IV (taqlid so‘z), qur-V (undov so‘z), qur-VI (qurmoq) fe‘l.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “marta”, “qush” (ot), “davra, maydon” (ot) ma’nolarida, shuningdek, undov va taqlid so‘z shakllarida ifodalangan bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da esa “payt” (ot), “qurmoq” (fe‘l) ma’nolari ham mavjud.

Misol, *Sen ketganingdan keyin bir-ikki qur xo‘jayinning oshnalari mehmon bo‘lib kelishdi.* G‘. G‘ulom, Shum bola.

*Qur oviga chiqmoq.* (ot)

*Kurash qilib yenggan, yiqqanlar, Polvon bo‘lib qurga chiqqanlar.* E. Rahim. (ot)

*Cho‘ponlar “qur-hayt”lab qo‘yni haydagan.* “Alpomish”. (undov so‘z)

*Yiroq-yiroqlardan baqalarning qurillashi eshitiladi.* S. Zunnunova, Yangi direktor. (taqlid so‘z)

*Ko‘prik qurmoq, yo‘l qurmoq.* (fe‘l)

*Qurdosh, tengqur.* (ot)

### **“Qo‘sh” omoleksemasi 3 turkum doirasida qo‘llanadi.**

Qo‘sh-I (qarorgoh) ot, qo‘sh-II (birlashtirmoq) fe‘l, qo‘sh-III (qo‘shaloq) sifat

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “birlashtirmoq” (fe‘l), “vaqtinchalik qarorgoh” (ot) va “qo‘shaloq” (sifat) ma’nolarida qo‘llanilgan bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “vaqtinchalik qarorgoh” ma’nosi mavjud emas.

Misol, *Hosilga hosil qo‘shmoq, otni aravaga qo‘shmoq.* (fe‘l)

*Hamma lashkar jam bo‘lib, bular ham Asqar tog‘dan oshib, qo‘sh tashladi.* “Go‘ro‘g‘li”. (ot)

*Tashqarida bir qo‘sha sozandalar.. shaharning mashhur hofizlari ashula aytadilar.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. (sifat).

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, omonimlar shakli bir, ma’nolari boshqa-boshqa so‘zlar hisoblanib, bir xil aytilishi va bir xil yozilishi jihatdan boshqa leksik vositalardan farqlanadi. Omonimlarning qaysi so‘z turkumiga

oidligi ularning ma'nosiga, yangi so'z yasash usuliga, grammatik xususiyatlariga qarab belgilanadi. Demak, omonimlarning muayyan so'z turkumiga mansubligi ularning ma'nolari va grammatik belgilariga bog'liq.

## II BOB. O‘ZBEK TILIDAGI OMOLEKSEMALARNING CHASTOTALI STATISTIK TAHLILI

### 2.1. Uch leksema doirasida farqlanuvchi omonimlar tahlili

Tilimizda bir omoifoda ostiga ikkitadan oltitagacha omoleksemaning birlashuvi kuzatiladi; bularning miqdoriy hissasi quyidagicha: ikki omoleksemali holat – 74,5, uch omoleksemali holat – 19 %, to‘rt omoleksemali holat – 4 %, besh omoleksemali holat – 1 %, olti omoleksemali holat – 1,5 %.

M i s o l l a r: 1) *ot- I* (ism) – *ot- II* (ish hayvoni) – *ot- III* (fe’l); bunda *ot-I – ot-II* munosabati – omonim omoleksemalar; *ot-I - ot-III* va *ot-II – ot- III* munosabati – omoforma omoleksemalar;

2) *o‘t-I* (maysa) - *o‘t-II* (olov) - *o‘t-III* (kishi tanasidagi a’zoning nomi) - *o‘t- IV* (fe’l);

bunda *o‘t- I - o‘t- II*, *o‘t- I - o‘t- III*, *o‘t- II - o‘t-III* munosabati – omonim omoleksemalar; *o‘t- I - o‘t- IV*, *o‘t- II - o‘t- IV*, *o‘t- III - o‘t- IV* munosabati – omoforma omoleksemalar;

3) *suz-I* (*sutni suz-*) - *suz-II* (ovqatni idishlarga sol) – *suz- III* (*ko‘zini suz-*) – *suz- IV* (*suvda suz*) - *suz- V* (*shoxi bilan suz*);

bunda voqe bo‘ladigan o‘n munosabatning har biri – omonim omoleksemalar;

4) *sur- I* (qorako‘lning navi) - *sur- II* ( och kulrang, ko‘kimtir) - *sur- III* (quritilgan) – *sur- IV* (beti qattiq) - *sur- V* (siljit) – *sur- VI* (ishqa);

bunda *sur- II - sur- III*, *sur- II – sur- VI*, *sur- III – sur- VI* munosabatlari, shuningdek *sur- V – sur- VI* munosabati – omonim omoleksemalar, *sur- I bilan sur- II*, *sur- III*, *sur- IV*, *sur- V*, *sur- VI* munosabatlarning har biri – omoforma omoleksemalar.

Shunga asoslanib, biz qiyosiy tahlilimiz davomida uch leksemali omonimlar, shuningdek, to‘rt va undan ortiq bo‘lgan omoleksemalarning “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dagi farqlariga diqqat qaratdik va misollar yordamida izohlashga harakat qildik.

Bu jarayonni alfavitdagi harflar tartibida ko‘radigan bo‘lsak, “**b**” harfidagi 3 omoleksemalar soni 12 tani tashkil qilib, bular quyidagilar:

banda-III (inson – ansambl – bezorilar to‘dasi) , bandar- III (kema – port – mango daraxti), bargak- III (tol novdasi – quritilgan o‘rik – ayollar bezagi), bas- III (ovoz – yetar - tortishuv), bez- III (yog‘ ichidagi to‘qima – bezbet - bezmoq), birlik- III (son – ittifoq – o‘lchov), boks- III (sport turi – ajratilgan xona- soch turmagi), bosiriq- III (yomon tush – bosilgan – to‘xtamay), boy- III (badavlat – shaxs – yutqazmoq), but- III (organ – budda - butun), bo‘yin-III (organ – suv yo‘li – masofa) kabi.

Bu omoleksemalardan “**banda**”, “**bandar**”, “**boks**”, “**bo‘yin**” kabilari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da berilmagan, “**bosiriq**” omoleksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “yomon tush”, “ot yopinchig‘i” kabi ikki leksema ma’nolarida berilgan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa “bosilgan”, “to‘xtamay” kabi ma’nolari ham mavjud.

*Misol, Qushbegi bilan men go‘yo mog‘ ostida **bosiriq** bo‘lgan edik. A. Qodiriy, O‘tkan kunlar.<sup>18</sup> (bosilgan ma’nosida)*

*Uch kun **bosiriq** u qishloqda ko‘rinmadi. (to‘xtamay)*

Tahlilimiz davomida alfavitdagi “**d**” harfiga oid bo‘lgan 6 ta uch leksemali omonimlarni aniqladik va ular quyidagilar:

devon- III (to‘plam – divan – mahkama (eski)), dim- III (sukut – issiq - aslo), dol- III (o‘yindagi holat – egik - xuddi), dom-III (tuzoq – darak, xabar - uy), dog‘-III (isitilgan – alam - iz), do‘l-III (muz – tegirmondagi taxta idish – nog‘ora);

Ushbu omoleksemalardan “**dom**” va “**do‘l**” omonimlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da ikki leksema sifatida berilgan.

Masalan, “**dom**” omonimining “*tuzoq, qopqon*” va “*darak, xabar*” ma’nolari izohlangan, lekin “*uy*” ma’nosi berilmagan.

*Misol, Binobarin, har bir **domdan** oqilona foydalanish zarur. S. Karomatov, Oltin*

---

<sup>18</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 320-b

qum.<sup>19</sup> (uy ma'nosida)

“**Do'l**” omoleksemasining esa “muz”, “tegirmondagi taxta idish” ma'nolari berilgan, ammo “nog'ora” ma'nosi esa berilmagan.

Misol, *Karnay-surnay, do'llarning takatumi osmon yoqasini yirtib solgudek. K.Yashin, Hamza.*<sup>20</sup>

Alfavitdagi “e”, “g”, “h”, “i”, “j” harflaridagi uch leksemali omonimlar soni 8 ta bo'lib, bular quyidagilar :

Esh- III (hamroh – ip eshmoq – eshkak eshmoq);

Gaz- III (modda – gazlama – yupqa);

Havo- III (atmosfera – kibr - ohang), hur – III (ozod – go'zal - hurmoq);

Ish- III (mehnat – tikuvchilikda material - undov), is-III (hid – tutun – o'rgimchak iniga o'xshash tolalar)

Jin- III (afsonaviy maxluq – paxta mashinasi – jiring tovush), jir- III (moy – qo'shiq – janjal);

Tahlilimiz davomida “**havo**” leksemasining “O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati” da 2 leksema sifatida, ya'ni, “atmosfera”, “kibr” ma'nolari berilgani va “O'zbek tilining izohli lug'ati”dagi “ohang” ma'nosi berilmaganiga guvoh bo'ldik.

“**Jin**” omoleksemasining ham ikki ma'nosi “afsonaviy maxluq”, “tor, qing'ir-qiyshiq” ma'nolari “O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati”da berilgan bo'lib, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da esa “jiring tovush” hamda “paxta tozalaydigan mashina” kabi ma'nolari izohlangan, lekin “jin” omonimining “tor, qing'ir-qiyshiq” ma'nolari “O'TIL”da ko'p ma'noli so'z sifatida izohlangan.

Misol, *Jin chaqa hammaning karmoniga tupurib, boylarning hamyoniga o'zini uradi.* Oybek, Tanlangan asarlar (jiring tovush ma'nosida)

*Zavod ichkarisida “jin”lar paxta tozalab chiqarmoqda.* J. Sharipov, Xorazm.<sup>21</sup>

---

<sup>19</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.1-tom. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 640-b

<sup>20</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.1-tom. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 673-b

<sup>21</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.1-tom. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 90-b

(paxta tozalaydigan mashina ma'nosida)

Alfavitdagi “**k**”, “**l**”, “**m**”, “**n**” harflari doirasidagi 3 leksemalari omonimlar soni 9 ta bo‘lib, bular quyidagilar:

Kashal- III (intizor – ishkal – uzoq yo‘l), kech- III (kechqurun – kechroq - kechmoq), ko‘ra- III (binoan – o‘choq - g‘ovak joy), kunda-III (to‘nka – yog‘och kishan – har kuni)

Laqqa- III (baliq – osongina – cho‘g‘);

Man- III (men – taqiq – og‘irlik o‘lchovi), mumiyo- III (mumsimon organik modda – mineral bo‘yoq - jasad) , mushak- III (muskul – portolovchi modda - sabzi);

Nor-III (tuya – anor - xol) ;

Bu omoleksemalardan “*kashal*”, “*man*” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da berilmagan, “*laqqa*” omonimi esa ikki leksemali omonim so‘z sifatida izohlangan. Masalan, “*laqqa*” omonimining “*baliq*”, “*osongina*” ma‘nolari berilib, “cho‘g‘” ma‘nosi lug‘atga kiritilmagan.

*Keyin uning tagiga laqqa cho‘g‘dan qalab, bir-ikki pufladi.* Sh. Xolmirzayev, Og‘ir tosh ko‘cha.<sup>22</sup>

Alfavitdagi “**o**”, “**p**” va “**q**” harflaridagi uch leksemali omonimlar soni 21 tani tashkil qilib, bular quyidagilar:

Olchin- III ( urug‘ nomi – uzunlik o‘lchovi – yog‘och to‘qmoq ), ort(moq)- III (orqa – ko‘paymoq - yuklamoq), och – III ( ochiqqan – kuchsiz, nimxush - ochmoq), osh-III (ovqat – modda - oshmoq)

Par- III ( parranda pati – juft – bug‘) , part- III (qaynoq suvda kuymoq – bedarmon, qarigan - tovush), pir- III (keksa – ko‘ngli qolmoq - tovush), portal- III (kirish qismi – konstruksianing tayanch qismi – internet atamasi);

Qadoqlanmoq-III ( choy qadoqlandi – idish qadoqlandi – qo‘l qadoqlandi),

---

<sup>22</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 492-b

qadoqli- III ( qadoq og‘irligidagi – yamalgan – qadog‘i bor qo‘l), qayin-III ( daraxt – qarindosh – nordon anor), qayish- III ( charm tasma – xamir ovqat – yon bosmoq), qiziq- III ( qizigan havo – qiziqarli - qiziqmoq), qirov- III ( mayda muz – mollardagi kasallik – charxlangan pichoq betidagi zarra), qirq- III ( o‘nlik – qabila nomi - qirqmoq), qovoq- III ( poliz o‘simligi – ko‘z qismi – kafe), qoq-III (qurigan – xuddi - qoqmoq), quloq- III ( eshitish organi – mushtumzo‘r – suvning boshlanish qismi), quroq-III ( mato parchasi – o‘simlik - varrak), qo‘sh-III ( birlashtirmoq – vaqtinchalik qarorgoh – qo‘shaloq), qari-III (qarich – keksa - qarimoq), qir-III (baland tekis yer – qirra - harakat)

Ushbu omonimlardan “*olchin*”, “*part*”, “*pir*”, “*portal*”, “*qadoqli*”, “*quroq*” omoleksemalari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da ifodalanmagan.

“*Qayin*” omoleksemasi 2 leksemali omonim sifatida izohlanib, “nordon anor” ma’nosi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan.

*Misol, Sersuv qayin anorning sharbatlari engagimdan tirqirab oqib ketmoqda. G‘. G‘ulom, Shum bola.*<sup>23</sup>

“*Qayish*” leksemasining ham ikki ma’nosi lug‘atda ifodalangan bo‘lib, “xamir ovqat” ma’nosi esa kiritilmagan.

“*Qovoq*” omoleksemasining esa “poliz ekini” va “ko‘z qismi” ma’nolari lug‘atga kiritilgan bo‘lib, “qovoqxona” ma’nosi kiritilmagan.

*Sharif Sulaymon hozir biron qovoqda, ehtimol, majlis o‘tkazayotgandir. Oybek, Nur qidirib.*<sup>24</sup> (qovoqxona ma’nosida)

“*Quloq*” so‘zi ikki leksemali omonim sifatida berilib, “eshitish organi” va “mushtumzo‘r” ma’nolari lug‘atga kiritilgan, ammo “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da “suvning boshlanish qismi” ma’nosi ham izohlangan.

*Otang mirob bo‘lsa ham quloqning boshida bo‘l. Maqol.*<sup>25</sup>

Alfavitdagi “**r**”, “**s**” va “**t**” harflari doirasida mavjud bo‘lgan uch leksemali

<sup>23</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.5-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 210-b

<sup>24</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.5-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 319-b

<sup>25</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.5-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 373-b

omonimlar soni 24 ta bo‘lib, ular quyidagilar:

Radikal- III (radikalizm tarafdori – keskin – matematika fanida ildiz chiqarish belgisi), rang- III (bo‘yoq – unvon – yovvoyi o‘simlik), registr- III (qaydnoma – musiqiy atama – kodlarni xotirada saqlovchi qurilma), rux- III (shaxmat donasi, to‘ra – yuz, ruxsor – metall turi),

Safar- III (sayohat – gal – oy nomi), sandal- III (isitgich – shippak - daraxt), sariq-III (rang – jism - kasallik), sila- III (to‘ldirilgan – baliq turi - silamoq), sira- III (tartib, ketma-ketlik – aniq - aslo), sop- III (dasta – eng zo‘r – tamom bo‘lmoq), soqa-III (ariq boshi – shar – harbiy atama), soz-III (ajoyib – cholg‘u asbobi - qamish), sog‘- III ( sog‘lom – o‘ng – sog‘moq), soch- III ( tola – qush - sochmoq), surma- III ( kimyoviy element – suriladigan – fe‘l), suzgich- III ( filtr – baliq a‘zosi – suv betida suzuvchi yengil detal),

Terma- III ( saralangan – janr – harakat inkori), til- III ( inson a‘zosi – aloqa vositasi - tilmoq), tim- III ( yopiq bozor – yuklama - mutlaqo), tik-III (qalin mato – vertikal - qadamoq), tor- III ( ensiz – dutor ipi – cholg‘u asbobi), tovlamoq- III (qizdirmoq – eshmoq, o‘ramoq - aldamoq), toy- III ( ot bolasi – paxta o‘rami - toymoq), tosh- III ( tog‘ jinsi – uzunlik o‘lchovi - toshmoq), tutuq- III ( apostrof – duduq - chimmat), tirish-III (yuzda chiziqlar hosil bo‘lishi – ajin – astoydil harakat qilmoq)

Bu omonimlardan “r” harfidagi “**radikal**”, “**rang**”, “**registr**” omoleksemalari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan, “**rux**” omonimining ikki ma’nosi, ya’ni, “shaxmat donasi, to‘ra”, “yuz, ruxsor” ma’nolari lug‘atda izohlangan, lekin qo‘shimcha ravishda bu omoleksemaning uchinchi “metall turi” ma’nosi kiritilmagan.

Misol, **Rux** qotishmalari. (kimyoviy element ma’nosida)

Alfavitdagi “s” harfiga doir omonimlardan “**soqa**” va “**surma**” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” ifodalanmagan. “**Sandal**”, “**sila**”, “**sop**” so‘zlari esa lug‘atda ikki leksemali omonim sifatida berilgan.

“**Sandal**” so‘zining “isitgich” , “shippak” ma’nolari izohlangan-u, ammo



lugʻatga “daraxt” leksemasidagi maʼnosi kiritilmagan.

Misol, *Ancha tuzalib, yoʻlga chiqib ketayotgan Meʼmor, Hojtabib bergan sandal yogʻochidan yasalgan asoga tiralib, xotini bilan bir lahza gaplashib qoldi.* Mirmuhsin, Meʼmor.<sup>26</sup> (daraxt maʼnosida)

“**Sila**” soʻzining “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”da “silamoq” va “toʻldirilgan” maʼnolari izohlangan, “baliq turi” maʼnosidagi 3-shakli esa lugʻatga kiritilmagan.

“**Sop**” omonimining lugʻatda “dasta” va “tamom boʻlmoq” maʼnolari berilgan, lekin “eng zoʻr” maʼnosidagi shakli lugʻatga kiritilmagan.

Misol, *Oʻn ming uyli qoʻngʻirot elining sop degan boyvachchalari ... oʻz kayfu safosi bilan oʻtirib edi.* “Alpomish”.<sup>27</sup> (eng zoʻr, asl maʼnosida)

Alfavitdagi “t” harfiga doir omoleksemalardan “**terma**” va “**tutuq**” soʻzlari “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”ga kiritilmagan. Shuningdek, “**til**”, “**tim**”, “**tovla**” omonimlari esa ikki leksemali omonim soʻzlar sifatida ifodalangan. “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”da “**til**” omonimining “inson aʼzosi” va “tilmoq” maʼnolari izohlangan, lekin “aloqa vositasi” maʼnosi lugʻatga kiritilmagan.

Misol, *Dehqonlarning tili bilan aytganda, yoʻgʻon choʻzilib, ingichka uziladigan payt.* N. Fozilov, Diydor.<sup>28</sup> (aloqa vosita maʼnosida)

“**Tim**” leksemasining lugʻatda “usti yopiq bozor” va kuchaytiruv maʼnosidagi yuklama shakllari izohlangan, ammo ravish turkumidagi “mutlaqo” maʼnosi kiritilmagan.

Misol, *Xon Dalli bu soʻzlarni eshitib, yuragida tim toqati qolmadi, eri mard Hasanga qarab... bir soʻz dedi.* “Ravshan”.<sup>29</sup> (mutlaqo, hech maʼnolarida)

“**Tovlamoq**” omoleksemasining “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”da “qizdirmoq”, “eshmoq, oʻramoq” maʼnolari izohlangan, ammo

---

<sup>26</sup> Oʻzbek tilining izohli lugʻati.3-tom. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,438-b

<sup>27</sup> Oʻzbek tilining izohli lugʻati.3-tom. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 553-b

<sup>28</sup> Oʻzbek tilining izohli lugʻati.4-tom. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 93-b

<sup>29</sup> Oʻzbek tilining izohli lugʻati.4-tom. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 99-b

“aldamoq” ma’nosidagi uchinchi shakli kiritilmagan.

Misol, *Sen mehnat qilmas ekansan, demak boshqalar hisobiga yashayapsan, jamiyatni tovlayapsan.* Gazetadan.<sup>30</sup>

Alfavitdagi “**u**”, “**v**” va “**x**” harflariga doir 3 leksemali omonimlar soni 5 ta bo‘lib, bular quyidagilar:

Un- III ( mahsulot – ovoz – o‘smoq), ura- III ( undov so‘z – urmoq - tezda );

Varaq-varaq- III( varag‘i ko‘p – jaraq-jaraq – tovushga taqlid);

Xor- III ( bechora – gul tikani – ashulachilar jamoasi), xo‘sh- III ( yuklama – xayrlashish – undov so‘z);

Ushbu omonimlardan “**ura**”, “**varaq-varaq**” va “**xor**” so‘zlari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da berilmagan, “xo‘sh” so‘zi esa ikki leksemali omonim so‘z sifatida izohlanib, “xayr” ma’nosidagi uchinchi shakli lug‘atga kiritilmagan.

Misol, “*Xayr, xudoning panohiga, Anvar*” – “*Xo‘sh, Sultonali aka*” – ikkisi *ajralishdilar.* A.Qodiriy, Merobdan chayon.<sup>31</sup> (xayr ma’nosida)

Alfavitdagi “**y**”, “**z**”, “**o**” harflaridagi uch leksemali omonimlarning miqdori 11 ta bo‘lib, bular quyidagilar:

Yon- III ( taraf – yoqilmoq - qaytmoq), yopishmoq- III ( berkitishmoq – pishirishmoq - ushlamoq), yoziqli- III ( yozilgan – to‘shalgan - gunohkor ), yosh- III ( davr – tomchi – o‘smir), yuz- III ( bet – miqdor - suzmoq);

Zang- III ( metall chirishi – qo‘ng‘iroq – tokning yo‘g‘on novdasi), zil-III (juda og‘ir – og‘ir botadigan – musiqa asbobi );

O‘ymoq- III ( kovlamoq – kichkina - angishvona), o‘ch- III ( qasd – hirs qo‘ygan – o‘chmoq)

Ushbu omonimlardan “yopishmoq”, “yoziqli” va “o‘ymoq” so‘zlarining ma’nolari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da keltirilmagan.

---

<sup>30</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 129-b

<sup>31</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 438-b

Alfavitdagi “**g**”, “**sh**”, “**ch**” harflariga doir uch leksemali omonimlarning miqdori 13 ta bo’lib, bular quyidagilar:

G‘ash- III ( noxush – injiq - dushman), g‘ashlik- III ( noxushlik – injiqlik - dushmanlik), g‘oz- III ( qush – kaloriya - gaz);

Shildir- III ( taqlid so‘z – firibgar - shildirmoq), shol- III ( qalin mato – falaj – jazo taxtasi);

Chakka- III ( bosh qismi – tomchi - suzma), chalma- III ( go‘ng – salla – do‘ppi jiyagi), chalmoq- III ( kuy ijro etmoq – oyog‘idan ilmoq – o‘ramoq, bog‘lamoq), chang- III ( zarracha – cholg‘u asbobi - changal), chaqa- III ( mayda pul – jarohat - farzand), chag‘ir- III ( chog‘ir – kulrang – o‘tkir qirrali), chekmoq- III ( tortmoq – boshdan kechirmoq – iste‘mol qilmoq)

Ushbu omoleksemalardan “**g‘ash**”, “**g‘ashlik**”, “**chalma**”, “**chalmoq**”, “**chag‘ir**”, “**chekmoq**”, “**shildir**” kabilari “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da berilmagan.

“**G‘oz**” so‘zi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da ikki leksemali omonim sifatida berilib, uning “kaloriya” va “qush” ma’nolari izohlangan, ammo “gaz” ma’nosidagi shakli lug‘atga kiritilmagan.

“**Shol**” so‘zining “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da “falaj” va “qalin mato” kabi ikki ma’nosi izohlangan, ammo “jazo taxtasi” ma’nosidagi uchinchi leksema shakli lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Soldilar shol bo‘yniga, kunda oyoqqa. Shu yo‘sin hukm etdilar, Qirq kun qamoqqa.* G‘ayratiy.<sup>32</sup> (jazo taxtasi ma’nosida)

---

<sup>32</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 593-b

### 2.3. Uchdan ortiq leksema doirasida farqlanuvchi omonimlar tahlili

Keyingi tahlilimiz to‘rt va undan ortiq leksemali omonimlarning tahliliga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bunday omoleksemalar miqdori alfavitdagi tahlilimiz natijasida 42 ta tashkil qilib, shunga asosan, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tili izohli lug‘ati”laridagi omoleksemalarni qiyosiy jihatdan solishtirishga harakat qildik. Bular quyidagilar:

Bahr- IV (dengiz - adabiyotshunoslik termini - ulush, naf - havas, qiziqish), band-IV (bo‘sh emas – tutqich – tugun - paragraf), bar- V (kiyimning etagi – old qo‘shimcha – mayxona – qumloq – fizik o‘lchov birligi), bit- IV (hasharot – tugamoq – unmoq - yozmoq), bor-IV (mavjud – marta – bormoq - modda), bosim- IV (qon bosimi(davleniye) – uzluksiz – baland – urg‘u), burun-IV (organ – geografik termin – avval – cho‘yan moslama), bo‘z-VI (mato – maysa – ekilmagan yer – kulrang – o‘smir – yig‘i);

Dam- VI (havo – temirchilik asbobi – nafas – bog‘lovchi – tig‘ – dim havo), dov-VI (qimorga tikilgan pul – dovyurak – da‘vo – yirik – daraxt - dadillik);

Jaz- V (go‘sh t bo‘lagi – tovushga taqlid – orkestr – tuya egari – holatga taqlid);

Mil-V (soat detali –miltiq stvoli –o‘lchov – keskir temir asbob – surmacho‘p);

Nor-IV ( yirik xol – tuya – anor - olov), oshiq- IV ( suyak – sevuvchi – ziyod - oshiqmoq);

Pay- V (elastik to‘qima – urinish – oyoq – yerga yoymoq - ulush), pix- IV (erkak parrandanig oyog‘idagi o‘simta – kesmoq – mushuk tovushi – mog‘or);

Qadoq- IV (og‘irlik o‘lchovi – qadoqlangan – ma‘lum miqdordagi choy, qand – teri parchasi), qat- IV (qatlam – qayer? – suyakdan tayyorlangan taxtacha – qirqish, uzish), qir- IV (baland tekis yer – uchli joy – qurilish xomashyosi - qirmoq), qur- V (marta –qush - undov so‘z – tovush – davra, maydon), quv- V (mug‘ambir – oqqush – rangi oqarmoq – qushlarni haydash – maxsus pilik);

Rom- IV ( ichimlik – deraza qismi – jalb qilish – fol ochish);

Sari- IV (tomon – eng yaxshi – sariq - kiyim), sur-V (qoqlangan – surbet - to‘q kulrang – salobat - karnay);

Tik- IV (tikka – tikmoq – mato – nerv kasalligi), tol- IV (daraxt – uzun va ingichka – portlovchi modda - tolmoq), tom- IV (uyning tepasi – to‘liq – jild - tommoq), toq- IV (juftning aksi – arka – sabri tugamoq - bo‘yinga ildiriladigan kunda), tos- IV (metal idish – guruh - kimxob – taqir), tuman- V (muz zarralari – o‘n ming – hudud – tuban, quyi – pul birligi ), tuz- IV (kristall – karta donasi – tekis yer - tuzmoq), tush- IV (payt – uyqudagi holat – bo‘yoq - tushmoq), to‘p- V (koptok – to‘da – zambarak – tovush, peshin);

Uch- IV (raqam – qirra – yoqilgan cho‘p - uchmoq);

Yo-IV (harf – yoy – undov so‘z – bog‘lovchi), yoz- IV (fasl – yoymoq – qog‘ozga bitmoq - adashmoq);

O‘r- V (jarlik – o‘jar – qirqmoq – eshmoq – o‘rmalamoq), o‘t- V (olov – o‘simlik – achchiq suyuqlik – harakatda bo‘lmoq - kesmoq);

Shart- IV (kelishuv – bedarmon – tovush – tez);

Chaqmoq-VI (yashin – o‘t oldirish asbobi – telpak – qand – urib yormoq – tishlab og‘ritmoq), chek- IV (pul hujjati – oxiri – ulush – ekin maydoni), chog‘- V (vaqt – shod – kichkina – tayyor – kuch-quvvat);

Alfavitdagi “b” harfiga doir “**bahr**”, “**band**”, “**bar**”, “**bit**”, “**bor**”, “**bosim**”, “**burun**”, “**bo‘z**” kabi omoleksemalarni kuzatar ekanmiz, bulardan “**bar**” so‘zi 5 leksemali omonim bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da keltirilmagan, “**band**” va “**bosim**” omonimlari lug‘atda ikki leksemali omonim so‘z sifatida keltirilgan.

“**Band**” omonimi to‘rt leksemali omonim hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “tutqich” va “bo‘sh emas” ma’nolari izohlangan, ammo “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da esa ushbu omonimning “tugun” va “paragraf” ma’nolari ham keltirilgan.

Misol, *Sobir ashulaning bir **bandini** aytishi bilan Solijon unga jo‘r bo‘ldi.* Fayziy, Cho‘lga bahor keldi. (paragraf ma’nosida)

*Nozik dilin og'ritma, qahr aylama pand ayla, Gar bog'lar esang ilgin, sochim bila band ayla.* Habibiy. (tugun ma'nosida)

“**Bosim**” omonimi to‘rt leksemali omonim hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “bosim kuchi” va “uzluksiz” ma’nolari berilgan, “baland” va “urg‘u” ma’nolari esa lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Bosim kelmoq.* (baland ma'nosida)<sup>33</sup>

*Kitobni esa, ruscha tez va bosimlarini joyiga qo'yib o'qiy bilgani uchun, Saidiy o'qishi kerak edi.* A. Qahhor, Sarob.<sup>34</sup>

“**Burun**” leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da uch xil shakldagi “organ”, “geografik termin”, “avval” kabi ma’nolari izohlangan bo‘lib, “cho‘yan moslama” ma’nosi lug‘atga kiritilmagan.

“**Bo‘z**” omonimi olti leksemali omonim hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da to‘rt leksemali omonim sifatida talqin qilingan. Lug‘atda “mato”, “maysa”, “ekin ekilmaydigan yer” va “kulrang” ma’nolari berilgan, “o‘smir” va “yig‘i” ma’nolari esa kiritilmagan.

Misol, *Unutmoq ham shunchami, Dunyo to'ldi bo'zimga.* M. Yusuf, Uyqudagi qiz.<sup>35</sup> (yig‘i ma’nosida)

*Ko'pchiligimiz jang ko'rmagan bo'z yigit edik.* B. Imomov, Xormang, quroldoshlar.<sup>36</sup> (o‘smir ma’nosida)

“**Jaz**” omonimi besh leksemali omonim hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “go‘sht bo‘lagi” va tovushga taqlid kabi ikki ma’nosi keltirilib, holatga taqlid, “tuya egari” va “orkestr” ma’nolari lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Jaz shu yerda sahnaning o'zida joylashgan edi.* “Yoshlik”.<sup>37</sup> (orkestr ma’nosida)

<sup>33</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 320-b

<sup>34</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 320-b

<sup>35</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 397-b

<sup>36</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 397-b

<sup>37</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 64-b

*Tuyaning o'ziga yarasha **jazi** bor.* Maqol.<sup>38</sup> (tuya egari ma'nosida)

“**Mil**” so‘zi besh leksemali omonim hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “soat detali” va “o‘lchov” kabi ikki ma‘nosi izohlangan, “miltiq stvoli”, “keskir temir asbob” va “surmacho‘p” ma‘nolari lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Mehmonxonaning qator uch eshigi miltiq **mili** sig‘arlik o‘lchakda bir necha joydan teshildi.* S. Ayniy, Qullar.<sup>39</sup> (miltiq stvoli ma‘nosida)

*Bobur darvozadan kirsin, keyin tuttirib, ko‘ziga **mil** torttirmoq kerak.* P. Qodirov, Yulduzli tunlar.<sup>40</sup> (keskir temir asbob ma‘nosida)

*Qoshingning qoralig‘i **mildanmidi**, belingning nozikligi qildanmidi?* M. Alaviya, Xalq qo‘shiq-lari.<sup>41</sup> (surmacho‘p ma‘nosida)

“**Nor**” so‘zi to‘rt leksemali omonim bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “yirik xol”, “tuya” va “anor” kabi ma‘nolari ifodalanib, “olov” ma‘nosi lug‘atga kiritilmagan.

“**Pix**” so‘zi to‘rt leksemali omonim hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “erkak parrandaning oyog‘idagi o‘simta” va “mog‘or” kabi ikki ma‘nosi ifodalanib, “kesmoq” va “mushuk tovushi” ma‘nolari lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Qovunni **pix** qilmoq.* (kemoq)<sup>42</sup>

*Boshqa biri orqadan mushuksimon “**pix**” deb, meni cho‘chitmoqchi bo‘ldi.* Oybek, Bolalik.<sup>43</sup>

“**Qadoq**” so‘zi to‘rt leksemali omonim bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “og‘irlik o‘lchovi”, “teri parchasi” va “qadoqlangan” kabi uch ma‘nosi izohlangan, “ma‘lum miqdordagi choy” ma‘nosi lug‘atga kiritilmagan.

“**Qir**” so‘zi to‘rt leksema doirasida farqlanuvchi omonim hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “baland tekis yer”, “uchli joy” va

---

<sup>38</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 64-b

<sup>39</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 592-b

<sup>40</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 592-b

<sup>41</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 592-b

<sup>42</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.3-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 268-b

<sup>43</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.3-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,268-b

“qirmoq” kabi uch xil shakldagi ma’nosi izohlangan, ammo “qurilish xomashyosi” ma’nosi lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Sulton Sanjar Murg‘ob daryosiga g‘ishtin to‘g‘on qurdirganda qir ishlatgan. Qir g‘oyatda mustahkam ashyo.* Mirmuhsin, Me‘mor.<sup>44</sup>

“**Quv**” so‘zi besh leksema doirasida farqlanuvchi omonim hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “oqqush”, “mug‘ambir”, “rangi oqarmoq” va “qushlarni haydash” kabi to‘rt ma’nosi ifodalanib, “maxsus pilik” ma’nosi lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Mehtaraga vuv solib, Chaqmog‘iga quv olib, Yo‘lga tushdi Hasan mard.* Ravshan.<sup>45</sup>

“**Rom**” so‘zi to‘rt leksema doirasida farqlanuvchi omonim bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “deraza qismi”, “jalb qilish” va “fol ochish” kabi uch shakli mavjud bo‘lib, “ichimlik” ma’nosidagi to‘rtinchi shakli lug‘atga kiritilmagan.

“**Tik**”, “**tol**”, “**tom**”, “**toq**”, “**tuz**” so‘zlari to‘rt leksema va “tuman” so‘zi besh leksema doirasida farqlanuvchi omonimlar bo‘lib, shulardan “tik”, “tol”, “tom”, “toq”, “tuz” kabi omonimlar “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da uch leksema doirasida ifodalangan, “tos” omoleksemasi esa lug‘atga kiritilmagan.

“**Tik**” so‘zining “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “mato”, “tikka” va “tikmoq” ma’nolari berilgan, “nerv kasalligi” ma’nosidagi to‘rtinchi shakli esa lug‘atga kiritilmagan.

“**Tol**” so‘zining “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “daraxt”, “tolmoq”, ma’nolari berilgan bo‘lib, “uzun va ingichka”, “portlovchi modda” kabi ikki ma’nosi lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Kokillarim eshilgandir tol-tol, Har toliga bersa yetmas duyo mol.* “Malikai ayyor” (uzun, ingichka ma’nolarida)<sup>46</sup>

“**Tom**” so‘zining “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “uyning

---

<sup>44</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.5-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,297-b

<sup>45</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.5-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 359-b

<sup>46</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 137-b



tepasi”, “tommoq”, “to’liq” ma’nolari izohlangan, ammo “jild” ma’nosidagi to’rtinchi shakli lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Yo’ldosh kirganda, Po’lat deraza rafida tizzasini quchoqlab o’tirar, stolda, yostig’i ustida meditsina ensiklopediyasining **tomlari** sochilib yotar edi.* A.Muxtor, Chinor.<sup>47</sup> (jild ma’nosida)

“**Toq**” so‘zining “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “juftning aksi”, “arka” va “sabri tugamoq” kabi uch ma’nosi izohlangan bo‘lib, “bo‘yinga ildiriladigan kunda” ma’nosi lug‘atga kiritilmagan.

“**Tuz**” omoleksemasining “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “kristall”, “karta donasi” va “tuzmoq” kabi uch leksema shakli ifodalangan bo‘lib, “tekis yer” ma’nosidagi shakli lug‘atda berilmagan.

Misol, *Yo’l yuramiz qumloq, suvsiz **tuzlarga**.* “Hasanxon”.<sup>48</sup> (tekis yer ma’nosida)

“**Uch**” so‘zi to‘rt leksema doirasida farqlanuvchi omonim hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “raqam”, “qirra” va “uchmoq” kabi uch leksema shakli ifodalanib, “yoqilgan cho‘p” ma’nosi lug‘atga kiritilmagan.

Misol, ***Uch** o’ramoq. **Uch** yoqmoq.*<sup>49</sup>

“**Yoz**” va “**yo**” so‘zlari to‘rt leksema doirasida farqlanuvchi omonimlar hisoblanib, “yo” omoleksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da “undov so‘z”, “harf” va ayiruv bog‘lovchisi ma’nolarida kelib, “yoy” ma’nosidagi to‘rtinchi shakli esa lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Munchalik g’am, munchalik mungni Bitta jonim qayga jo qilar? Shunchalikda bandaning ko’ngli, Qachongacha qaddin **yo** qilar?*<sup>50</sup> (yoy ma’nosida)

“**O‘r**” va “**o‘t**” so‘zlari besh leksema doirasida farqlanuvchi omonimlar hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da “o‘r” omoleksemasining “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da “qirqmoq” va “eshmoq” ma’nolari

<sup>47</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 140-b

<sup>48</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006, 179-b

<sup>49</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 306-b

<sup>50</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 22-b

izohlanib, “jarlik”, “o‘jar” va “o‘rmalamoq” kabi uch shakldagi ma’nosi lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Dastalarga chiqqan qurtlar pilla o‘rash o‘rniga o‘rib yurar, yakka-yakka o‘raganlari ham pillani teshib, yana chiqib ketgan edi.* N. Safarov, Oliyaxon Sultonova.<sup>51</sup> (o‘rmalamoq ma’nosida)

*O‘zbek o‘r bo‘ladi-da, deyishayotirlar.* “Ravshan”.<sup>52</sup> (o‘jar ma’nosida)

*Front orqasida o‘r qazib turganda, Mulla Obiddan o‘ttiz metrcha nariga bir katta to‘p o‘qi tushib, qattiq tovush chiqarib yoriladi.* A.Qodiriy, Obid ketmon.<sup>53</sup> (jarlik, chuqurlik ma’nosida)

“O‘t” omoleksemasining “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da “olov”, “o‘simlik”, “achchiq suyuqlik” va “harakatda bo‘lmoq” kabi 4 xil shakldagi ma’nosi ifodalanib, “kesmoq” ma’nosi esa lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Qattiq yog‘ochga bolta yaxshi o‘tmayapti. Sabziga o‘tmaydigan pichoqni yoningda olib yuribsanni*<sup>54</sup> (kesmoq ma’nosida)

“Shart” so‘zi to‘rt leksema doirasida farqlanuvchi omonim so‘z hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da “kelishuv”, taqlid so‘z shaklidagi ma’nolari izohlangan, ammo “tez” va “bedarmon” kabi ikki ma’nosi lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Dilbar shart o‘rnidan turdi-yu, eshikni qarsillatib yopib chiqib ketdi.* S.Ahmad, Ufq.<sup>55</sup> (tez ma’nosida)

*...sharti ketib, parti qolgan tegirmonlar nigohini tortishi mumkin.* J.Abdullaxonov, Xonadon.<sup>56</sup> (bedarmon ma’nosida)

“Chaqmoq” so‘zi olti leksema doirasida farqlanuvchi omonim bo‘lib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “qand” va “yashin” kabi ikki ma’nosi ifodalangan bo‘lib, “o‘t oldirish asbobi”, “telpak”, “urib yormoq”, “tishlab

---

<sup>51</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.5-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 168-b

<sup>52</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.5-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 158-b

<sup>53</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.5-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 158-b

<sup>54</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.5-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 183-b

<sup>55</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 551-b

<sup>56</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 551-b

og‘ritmoq” kabi ma’nolari berilmagan.

Misol, *Papiros chekish uchun olib yurgan chaqmog‘idan boshqa yorug‘ beradigan bir narsa yo‘q.* Oydin, Mardlik – mangulik.<sup>57</sup> (o‘t oldirish asbobi ma’nosida)

*Xomtama bo‘lma, sening kavushingga ular zor emas, mo‘ynado‘zlar tikkan chaqmoq telpaklarni ham boshlariga urmaydilar.*<sup>58</sup> M. Osim, Elchilar. (telpak ma’nosida)

*Bola yong‘oqni chaqish uchun atrofiga ko‘z yugurtirib, tosh qidirdi.*<sup>59</sup> “Yoshlik”. (urib yormoq ma’nosida)

*Oyog‘ini chaqayotgan chumolini ushlab, ko‘zdan kechirdi.*<sup>60</sup> “Yoshlik” (tishlab, chaqib og‘ritmoq ma’nosida)

“Chog‘” so‘zi besh leksema doirasida farqlanuvchi omonim hisoblanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da “vaqt”, “shod”, “kichkina” , “tahmin” kabi ma’nolari izohlanib, “tahmin” ma’nodagi shakli hozirda ko‘p ma’noli so‘z sifatida qaraladi.

Misol, *Hosil mening chog‘imdan ko‘p bo‘ldi.*<sup>61</sup>

“tayyor”, “kuch-quvvat” kabi ikki ma’nodagi shakli esa lug‘atga kiritilmagan.

Misol, *Chog‘ bo‘lib turmoq.* (tayyor ma’nosida)

*Tog‘ay devorga behol suyanarkan, ularni quvib yetishga chog‘i kelmasligini sezdi.* “Yoshlik”.<sup>62</sup> (kuch-quvvat ma’nosida)

---

<sup>57</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 468-b

<sup>58</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 468-b

<sup>59</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 468-b

<sup>60</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 469-b

<sup>61</sup>“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”. – T.:O‘qituvchi,1984, 156-bet.

<sup>62</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.4-tom. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 512-b

### III. BOB. “O‘TIL”DA IFODALANGAN OMONIMLARNING “O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI” BILAN QIYOSIY TAHLILI

#### 3.1. Lug‘atlar sathida to‘liq omonimlar tahlili

Ma’lumki, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” o‘z ichiga 497 omoifodani birlashtiruvchi 1160 dan ortiq leksemani qamrab oladi. Vaholanki, ushbu lug‘atdagi omoleksemlarni tarmoq lug‘atlar bilan qiyosiy tahlil qiladigan bo‘lsak ko‘plab tafovutlarni ko‘rishimiz mumkin. Tilshunoslikdagi shunday muammolardan biri polisemiya ya’ni ko‘p ma’nolilik hodisasi demakdir. Polisemiya yoki omonimiya? Bu hodisalar bir-biriga yondosh bo‘lgan hodisalar demakdir. Shu sababdan, omonimiyaning eng munozarali tomoni ham shu uni polisemiya bilan farqlashdir.

Omonimiya va polisemiya hodisalarini semantik tahlil etish borasida o‘zbek tilshunoslaridan M.Mirtojiyev, Sh.Rahmatullayev, S.Usmonov, T.Aliqulov, N.Rajabov, U.Tursunovlarning ilmiy tadqiqotlarini aytishimiz mumkin. Omonimiyaning yuzaga keltiruvchi hodisalardan biri polisemiya taraqqiyoti natijasidir. Polisemantik so‘zlarning omonimlarni tarkib toptira oladigan taraqqiyotini ko‘plab tadqiqotchilar ma’nolarning o‘zaro yiroqlashuvi desa, ba’zi tilshunoslar esa ma’nolarning o‘zaro uzilib ketishi, deb ko‘rsatadi. V.I.Abayev “Bu ikki hodisa ma’nolari o‘rtasida hech qanday yiroqlashish bo‘lmaydi va omonimlarning polisemantik so‘zlardan kelib chiqishi uchun asos ham emas”<sup>63</sup> deya fikr bildirib o‘tganlar. Ba’zi tilshunoslar esa polisemantik so‘z ma’nolari orasida bog‘lanish uzilsa, omonim vujudga keladi deb talqin qiladilar. Omonimiya va polisemiya hodisalarining yuzaga kelishi xususidagi yuqorida ko‘rsatilgan o‘zaro ziddiyatli fikr-mulohazalarning mavjudligi mazkur hodisalar ustida maxsus ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo etadi.

Prof. Sh.Rahmatullayev omonimiya va polisemiya hodisalarini o‘zaro farqlab olishni shunday tushuntiradi: “Qiyin masalalardan biri - ma’no taraqqiyoti asosida

---

<sup>63</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. - Тошкент: Фан, 1975. - 26 б.

yuzaga kelgan omonimiyani polisemiya bilan farqlab olish. Bular orasidagi chegara quyidagicha belgilab yuriladi: «Ma'nolarni bir-biriga bog'lab turuvchi ip, zanjir uzilsa, omonim bo'ladi. Bunday ip, zanjir uzilmagan bo'lsa, ko'p ma'noli so'z bo'ladi»<sup>64</sup>. Shunday ekan, biz ushbu bobimizda "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati"da ifodalangan omonimlarni "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mavjud omoleksemalar bilan taqqoslab, polisemiya yoki omonimiya hodisasi ekanligini qiyosiy tahlil qilishga, to'liq va omoforma tipida guruhlariga ajratib o'rganishga harakat qildik.

**Asar** omonimi "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati"da ikki xil ma'noda (asar-I iz, ta'sir; asar- II ijod mahsuli<sup>65</sup>) izohlangan, biroq "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu omonim ko'p ma'noli so'z sifatida qaralgan. Agar asar so'zining ma'nolariga diqqat qaratadigan bo'lsak, ular orasidagi aloqadorlik butkul uzilgan, ya'ni, bir ma'nosi "biror narsadan qolgan yoki undan darak beruvchi belgi", ikkinchi ma'nosi esa "ijodiy mehnat mahsuli" dir. Bundan anglashiladiki, bu so'zlar bir-biriga bog'liq bo'lmagan boshqa-boshqa so'zlardir, ya'ni, omonim sanaladi.

Misol, *Kasallikdan hech qanday asar qolmadi.*

*San'at asari. Baddiy asar. Ilmiy asar.*

**Birlik** leksemasi "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" da omonim so'z sifatida (birlik-I o'ngacha bo'lgan butun son, birlik-II hamjihatlik, birlashish, ittifoq, birlik-III o'lchov<sup>66</sup>) izohlangan bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'p ma'noli so'z sifatida keltirilgan.

1. Bir yoqadan bosh chiqarib birlashganlik, hamjihatlik.

*Kuch - birlikda.*

2. Bir butunlik, umumiylik.

---

<sup>64</sup> Рахматуллаев Ш. Луғат бойлигини ўрганиш ва ўргатишда қайта баҳолаш зарур бўлган баъзи масалалар. Ўзбек тили ва адабиёти. 1990

<sup>65</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 21-б

<sup>66</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 30-б

*Bola tarbiyasida maktab bilan oila maqsad **birli**gi bo‘lishi lozim. Gazetadan.*

3. Sanash, o‘lchash, hisoblash uchun mezon sifatida qabul qilingan kattalik.

*O‘lchov **birliklari**, elektr sig‘imining **birliklari**.*

4. Til sathlarining lisoniy kategoriyalari.

*Lug‘aviy **birlik**, frazeologik **birlik**, nutqiy **birliklar**.*

**Grafika** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (grafika-I rasm chizish turi, grafika-II nutq tovushlarini yozuvda ifodalovchi harflar tizimi<sup>67</sup>) izohlangan bo‘lib, ushbu ma’nolar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirilgan, ammo ma’nolar orasida bog‘liqligini hisobga oladigan bo‘lsak, grafika leksemasi omoleksema hisoblanadi, chunki ushbu so‘zning har bir ma’nosi boshqa bir ma’noni izohlaydi.

**Kun** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (kun-I oftob, quyosh, kun-II kun qismi<sup>68</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da 7 xil ma’nosiga izoh keltirilib, ko‘p ma’noli so‘z sifatida berilgan. Kun leksemasining ma’nolari turli so‘z turkumida ifodalangan bo‘lishiga qaramay, ma’nolar orasida bog‘liqlik, aloqadorlik mavjuddir.

**Mijoz** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (mijoz-I ruhiyat, inson tabiatining xususiyati, mijoz-II doimiy xaridor<sup>69</sup>) izohlangan bo‘lib, ushbu ma’nolar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ko‘p ma’noli leksema sifatida keltirilgan. Lekin mijoz leksemasining ma’nolari orasida aloqadorlik uzilganligini hisobga olgan holda, omoleksema sifatida qarash maqsadga muvofiq sanaldi.

---

<sup>67</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 47-б

<sup>68</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 80-б

<sup>69</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 86-б

**Nafas** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (nafas-I havo, nafas-II juda qisqa vaqt, lahza, on<sup>70</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirib o‘tilgan. Nafas leksemasining 6 xil ma’nosiga izoh keltirilgan bo‘lib, ular quyidagicha

1. Havo ma’nosida – *so‘nggi nafas*.
2. Izhor qilingan niyat – *nafasingizni sovuq qilmang*.
3. Juda qisqa vaqt, lahza, on – *bir nafasga*.
4. Hid, is ma’nosida – *xushbo‘y nafas, badbo‘y nafas*.
5. Harorat, ob- havo – *gullarning nafasi, odamning nafasi*.
6. Duoxon solgan dam kuchi – *Uyimizda bir bechora bemor bor, shaytonlab yotibdi, taqsir, dam solib keling, shoyad nafasingizdan shifo topsa*. Oybek, Tanlangan asarlar.<sup>71</sup>

Nafas leksemasining yuqorida keltirilgan ma’nolariga qaraydigan bo‘lsak, “havo”, “vaqt, lahza”, “hid, is” ma’nolari orasida aloqadorlik uzilgan bo‘lib, ushbu so‘zlar o‘zaro omoleksema hisoblanadi.

**Oy** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (oy- I planeta, oy-II vaqt o‘lchovi<sup>72</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da esa ko‘p ma’noli so‘zsifatida keltirilgan. Lekin “oy” so‘zining ma’nolari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjud emas, ularning har biri boshqa-boshqa yangi ma’noni izohlamoqda, shu sababdan oy leksemasi omonim so‘z sanaladi.

**Oylik** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (oylik-I oy mobaynida davom etadigan, oylik-II maosh, ish haqi<sup>73</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ko‘plab ma’nolari keltirilgan bo‘lib, ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirilgan.

<sup>70</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 89-б

<sup>71</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 3- tom. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 24-bet

<sup>72</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 92-б

<sup>73</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 92-б

1. Bir oyga mo'ljallangan- **oylik reja**
2. Oy mobaynida davom etadigan- *to'qqiz **oylik** yo'l*
3. Har oyda chiqadigan- **oylik jurnal**.
4. Haq, maosh m'nosida.
5. Biror ijtimoiy ishni bajarish, tadbir o'tkazish uchun belgilangan bir oy muddat- *Kitob **oyligi**. Shaharni obodonlashtirish **oyligi**.*<sup>74</sup>

**Tabaqa** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (tabaqa-I ijtimoiy toifa, tabaqa-II darvoza derazasining yopilib-ochiladigan qismi<sup>75</sup>) izohlangan, ammo “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirilgan. Tabaqa so‘zining har ikkala ma’nosiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, ma’nolar orasida aloqadorlik mavjud emas, yoki bir ma’nodan keyingi bir yangi ma’no o‘sib chiqqan emas, demakki tabaqa leksemasi omonim so‘z hisoblanadi.

**Tan** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (tan-I tana, gavda, tan-II savdoda pul miqdori<sup>76</sup>) keltirilgan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa omoleksema sifatida emas, balki ko‘p ma’noli so‘z sifatida ma’nolariga izoh berilgan.

1. Tana, gavda ma’nosida
2. Vujudning sirt qismi, badan ma’nosida.
3. Jasad ma’nosida – *Soldat **tani** qo’shni vavoddan shekilli*. T.Rustamov, Mangu jasorat.<sup>77</sup>
4. Tegishlilik, ulush ma’nosida- *Har kim o‘z **tanini** oldi, xarajatning yarmi mening **tanim**.*
5. Dastlabki mablag‘, sarmoya ma’nosida – ***Tanidan** yuz so‘m kamiga sotmoq.*

**Tob** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z

<sup>74</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 3- tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 100-b

<sup>75</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 123-б

<sup>76</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 124-б

<sup>77</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 3- tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 658-b



sifatida ikki xil ma'noda (tob-I kuch-quvvat, mador, tob-II daqiqa, on<sup>78</sup>) izohlangan bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa ko'p ma'noli so'z sifatida keltirilgan va quyidagicha ma'nolarda izohlangan.

1. Kishi organizminini holati, sog'liq ma'nosida- *tobim yaxshi, tobim durust.*
2. Me'yoriga yetish darajasi- *Sayislar biladi otning tobini.* Ergash Jumanbulbul.<sup>79</sup>
3. Xohish- istak ma'nosida- *Ishga tobing bormi, jiyani.* Oybek, Tanlangan asarlar.<sup>80</sup>
4. Chidam, toqat ma'nosida- *tob bermoq.*

**Tomoq** leksemasi "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati"da ikki xil ma'noda (tomoq-I inson a'zosi, tomoq-II ovqat<sup>81</sup>) izohlangan, ammo "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'p ma'noli so'z sifatida keltirilgan va ma'nolariga izoh berilgan. Tomoq leksemasining ma'nolariga diqqat qaratadigan bo'lsak, bir so'zning turli ma'nolari emas, balki yangi hosil bo'lgan boshqa-boshqa so'zlar, ya'ni, omonim so'z demakdir.

**Qumri** leksemasi "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati"da ikki xil ma'noda (qumri I- qush turi, qumri-II sariq gulli o't<sup>82</sup>) keltirilgan bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa 2 xil ma'nodagi ko'p ma'noli so'z deya izohlangan, ammo bir ma'nosi qush turi, ikkinchi ma'nosi esa xotin-qizlar nomi deya keltirib o'tilgan. Atoqli otlarni, ya'ni shaxs nomlarini omonimlar yoki ko'p ma'noli so'zlar qatoriga kiritish xato sanaladi va ko'plab chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababdan, qumri leksemasi ikki xil ma'noni ifodalovchi omonim so'z hisoblanadi.

---

<sup>78</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 132-б

<sup>79</sup> "O'zbek tilining izohli lug'ati" 4- tom. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 126-b

<sup>80</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati 4- tom. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 126-b

<sup>81</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 134-б

<sup>82</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 190-б

### 3.2. LUG‘ATLAR SATHIDA OMOFORMALAR TAHLILI

**Agregat** omonimi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da ikki xil, ya’ni, agregat-I – qishloq xo‘jaligi termini; agregat-II – aralash, qo‘shilgan<sup>83</sup> kabi ma’nolarda izohlangan bo‘lib, lekin “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu omoleksema ko‘p ma’noli so‘z sifatida izohlangan. Chunki, ushbu leksemani lug‘aviy ma’nosi “aralash”, “qo‘shilgan” degan ma’noni bildirib, ma’nolar orasidagi aloqadorlik uzilmagan, shu sababli agregat so‘zini ko‘p ma’noli so‘z deb qarash maqsadga muvofiq sanaladi.

Misol, *O‘rim **agregati**, yer tekislash **agregati**.* – omonim

***Agregat** stanok, moddalarning **agregat** holati.* – omonim

*Yer tekislaydigan **agregat**.* –ko‘p ma’noli so‘z

*Traktor yurmay qolgach, biror **agregati** ishdan chiqqanligini sezib, abduattor traktor ostiga sho‘ng‘idi.* –ko‘p ma’noli so‘z

*Minerallar **agregati**.* –ko‘p ma’noli so‘z

**Ayri** omonimi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da ikki xil ma’noda (ayri-I ikkiga ajralgan; ayri-II uchi ikki butoqli tirgak<sup>84</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ikki ma’nosi ham ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirilgan. Aslida ushbu leksemaning ma’nolari orasida aloqadorlik yo‘qolgan va boshqa-boshqa turkumdagi yangi so‘zlar, ya’ni, omonimlardir.

**Alomat** omonimi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da ikki xil ma’noda (alamat-I belgi, ko‘rsatkich, alamat-II odatdagidan o‘zgacha<sup>85</sup>) keltirilgan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da alomat leksemasi ko‘p ma’noli so‘z sifatida izohlab o‘tilgan.

1. Shartli ravishda qo‘yilgan belgi, ishora – *tenglik **alomati***
2. Biror voqea, hodisadan darak beruvchi nishona – *qo‘rquv **alomati***

<sup>83</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 17-6

<sup>84</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 18-6

<sup>85</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 20-6

3. Ramz, simvol, emblema - *Uning egnida temiryo'l ishchilarining formasida tikilgan kostyum, yoqasida qizil yulduz **alomati** ham bor.* Oydin. Er yurak.<sup>86</sup>
4. Ijobiy xislatlarga ega bo'lgan juda ajoyib. – *Tavba, **alamat** odam-da, bu dunyoda shunaqa odamoxunlar... bor ekan-da!* M. Ismoiliy<sup>87</sup>
5. Kishini hayratda qoldiradigan ajablantiradigan, ajib - *Ne **alamat** savdolar.*

Ushbu misollarga diqqat qaratadigan bo'lsak, *alamat* leksemasining ko'p ma'noli so'z ekanligini ko'rishimiz mumkin, chunki *alamat* so'zining ma'nolari orasida aloqadorlik mavjuddir.

**Achchiq** so'zi "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati"da ikki xil ma'noda (*achchiq*-I nordon, *achchiq*-II jahl, qahr, g'azab<sup>88</sup>) izohlangan, ammo ushbu omonim "O'zbek tilining izohli lug'ati" dako'p ma'noli so'z sifatida keltirib o'tilgan. Ushbu omoleksemaning ma'nolariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bir ma'nodan ikkinchi ma'no o'sib chiqqaniga guvoh bo'lamiz, misol tariqasida *achchiq* shirinning aksi taxir shaklidagi maza ma'nosi insondagi jahl, g'azab xususiyati o'tgan, ya'ni, bu ma'nolar orasida aloqadorlik mavjud. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *achchiq* so'zining 8 xil ma'nosiga izoh berib o'tilgan.

1. Ta'mi og'iz -tilni achitadigan – ***achchiq** garimdori.*
2. Nordon, tishni qamashtiradigan – ***achchiq** anor.*
3. Sezgi a'zolarga qattiq ta'sir qiladigan – ***achchiq** gaz.*
4. Jazzilatadigan, jonni achitadigan – ***achchiq** sovuq.*
5. Kishiga qattiq tegadigan, kishiga ozor beradigan – ***achchiq** tanqid.*
6. G'am- iztirobli, alamli – ***achchiq** ko'z yoshlar.*
7. Qahr, jahl, zarda ma'nosida
8. Qiyinchilik, azob-uqubat, mashaqqat ma'nosida

<sup>86</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati" I- tom. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,70-b

<sup>87</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati" I- tom. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,70-b

<sup>88</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 23-б

Yuqorida keltirilgan misollardan “achchiq” leksemasini ko‘p ma’noli so‘z ekanligini va ma’nolar o‘rtasida bog‘liqlik mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

**Bosma** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (bosma-I yuk ko‘tarish qurilmasi, bosma-II nashrga oid<sup>89</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirilib, 9 xil ma’nosiga izoh berib o‘tilgan.

1. Bosmaxonada bosilgan - *bosma asarlar*.
2. Nashr ma’nosida.
3. Bosmaxona ma’nosida.
4. Nashriyot, nashrchi ma’nosida.
5. Kashtachilikda keng tarqalgan gul-chokklaridan biri – *Bosma tikkan botir qiz, Jamalay tikkan chevar qiz*. Boychechak.<sup>90</sup>
6. Jundan tikilgan mato – *bosma kigiz*.
7. Gul nusxalari
8. Siyohni shimib quritadigan asbob
9. Bosqin, bosqinchilik ma’nolarida.

Yuqoridagi misollarga diqqat qaratadigan bo‘lsak, “balandga yuk ko‘tarish uchun xizmat qiladigan qurilma” ma’nosiga izoh berilmagan, bundan ko‘rinadiki, ushbu so‘z omonim so‘z sanalab, ma’nolar orasidagi aloqadorlik butkul yo‘qolgan.

**Bosh** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (bosh-I inson a’zosi, bosh-II eng oldingi, birinchi<sup>91</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirilib, 20 xil ma’nosiga izoh berilib, ma’nolar orasidagi aloqadorlik misollar orqali yoritib o‘tilgan.

---

<sup>89</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 33-б

<sup>90</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati” I- tom. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 321-б

<sup>91</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 34-б

**Vertikal** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (vertikal- I tik chiziq, vertikal- II gorizantal tekislik<sup>92</sup>) izoh berilgan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ko‘p ma’noli so‘z sifatida 3 xil ma’nosiga misollar keltirilgan. Vertikal so‘zining ma’nolari o‘zaro bir-biriga yaqin bo‘lib, yangi ma’no mavjud emas, ya’niki, ma’nolar orasidagi bog‘liqlik uzilmagan. Shunday ekan ushbu leksema omonim so‘z hisoblanmaydi.

**Daydi** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (daydi-I darbadar, daydi-II darbadar kezib, ko‘chib yurmoq<sup>93</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirib o‘tilgan. Ushbu omoleksemaning ma’nolariga diqqat qaratadigan bo‘lsak, ularning har biri boshqa-boshqa turkum bo‘lishidan qat’iy nazar bir ma’nodan keyingi ma’no o‘sib chiqqan, ya’niki, ma’nolar orasida aloqadorlik mavjuddir.

**Do‘st** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (do‘st- I ulfat, oshna, do‘st-II undov so‘z, hayqiriq<sup>94</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 4 xil ma’nosiga izoh keltirilgan bo‘lib, ko‘p ma’noli so‘z sifatida berilgan. “Do‘st” so‘zining yuqorida keltirilgan ma’nolari orasida bog‘liqlik mavjud emasligini, bir so‘zning ikki xil shakli ekanligini hisobga olgan holda ushbu so‘z omoleksema sanaladi.

**Yetti** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (yetti-I olti bilan sakkiz orasidagi butun sonning nomi, yetti-II marosim<sup>95</sup>) keltirilgan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” esa ko‘p ma’noli so‘z sifatida yetti leksemasining 3 xil ma’nosiga izoh berilgan.

Masalan, Raqam ma’nosida- *yetti kishi*, *yetti olma*.

---

<sup>92</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 44-б

<sup>93</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 48-б

<sup>94</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 57-б

<sup>95</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 58-б

Marosim, maraka ma'nosida- *Kecha odamga muvofiq, nari-beri yetti qilindi.*  
Tanlangan asarlar.<sup>96</sup>

Ayrim so'zlar bilan qo'llanilib ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi-  
*Yetti uxlab tushiga kirmagan.*

**Ideal** leksemasi "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" da omonim so'z sifatida ikki xil ma'noda (ideal-I yuksak kamolot timsoli, maqsad, orzu, ideal-II sifatli, benuqson<sup>97</sup>) izohlangan bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati" da esa ko'p ma'noli so'z sifatida talqin qilingan va 3 ta ma'nosiga izoh keltirilgan.

1. Orzu va tilak ma'nosida
2. Xayolan orzu qilinadigan, lekin hali hayotda mavjud bo'lmagan narsa, hodisa ma'nosida - *Uning ideali yoqtirgan qizini o'z ta'siriga olib, o'z qadrini yerga urmay sevilmoq edi.* P. Qodirov, Uch ildiz.<sup>98</sup>
3. Olijanob, namuna bo'ladigan ma'nosida – *ideal obraz, ideal inson.*

Ideal leksemasining ma'nolariga diqqat qaratadigan bo'lsak, garchand turli so'z turkumlarida izohlangan bo'lsa-da, ular orasidagi, ya'ni, ma'nolar orasidagi aloqadorlikni ko'rishimiz mumkin.

**Internatsional** leksemasi "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" da omonim so'z sifatida ikki xil ma'noda (internatsional-I xalqaro siyosiy ittifoq, birlashma, internatsional-II xalqaro, millatlararo) izohlangan bo'lib, ushbu ma'nolar "O'zbek tilining izohli lug'ati" da esa ko'p ma'noli so'z sifatida keltirilgan.

**Issiq** leksemasi "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" da omonim so'z sifatida ikki xil ma'noda (issiq-I harorati normadan ortiq darajada, issiq-II harorat, isitma<sup>99</sup>) izohlangan bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati" da esa ko'p ma'noli so'z sifatida keltirilib, 6 xil ma'nosiga izoh berilgan.

1. Issiqlik ma'nosida.

---

<sup>96</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati" II- tom. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,20-b

<sup>97</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 67-б

<sup>98</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati" II- tom. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,173-b

<sup>99</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 69-б

2. Kasallikda yuzaga keladiga harorat, isitma ma'nosida.
3. Yuqori haroratli, issiq holatli – *issiq suv, havo issiq.*
4. Issiqlikni saqlaydigan, issiq tutadigan – *issiq palto, issiq kiyim.*
5. Qozon ovqati, issiq taom – *Kechadan beri (Kumushning) ichiga issiq kirgani yo'q. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.*<sup>100</sup>
6. Yoqimli, kishiga xush keladigan ma'nosida.

**Kakra** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (kakra-I taxir, talxa o‘simlik, kakra-II taxir, achchiq<sup>101</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirilgan. Ushbu leksema anglatadigan ma’nolariga diqqat qaratadigan bo‘lsak, bir so‘zning boshqa-boshqa shakllari emas, balki ma’nolari bir-biriga yaqin ko‘p ma’noli so‘z demakdir.

**Kasal** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (kasal-I nosog‘lom, xasta, betob, kasal-II xastalik<sup>102</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da esa 6 xil ma’nodagi ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirilgan. Agar kasal leksemasining ma’nolariga diqqat qaratadigan bo‘lsak, bir ma’nodan keyingi bir ma’no o‘sib chiqqan, ya’niki, ma’nolar o‘rtasida bog‘liqlik mavjuddir. Masalan,

1. Kasalik, dard ma'nosida
2. Kasallikka yo‘liqqan, betob ma’nosida.
3. Kasallikka yo‘liqqan shaxs, bemor ma’nosida.
4. Nosozlik, buzuq holat ma’nosida- *U (Erkin) mashinaga bir qarashdayoq kasalini topadi va davosini qildi. H. G‘ulom, Toshkentliklar.*<sup>103</sup>
5. Odatga aylanga ish, xatti-harakat ma’nosida- *yolg‘onchilik kasaliga muhtalo bo‘lmoq, sevgi kasaliga muhtalo bo‘lmoq.*

<sup>100</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati” II- tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,234-b

<sup>101</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 73-б

<sup>102</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 74-б

<sup>103</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati” II- tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,328-b

6. Biror narsa istagi, ishtiyoq, intilish ma'nosida- *Oilada ishning juda ishkali – Xolaposhshaning kiyim-kechak kasali*. “Mushtum”.

**Kecha** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (kecha-I sutkaning kechqurundan tonggacha bo‘lgan qismi, kecha-II bugundan oldingi kun<sup>104</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirigan.

**Kir** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida to‘rt xil ma’noda (kir-I nopok, ifloslangan, kir-II nopoklik, ifloslik, kir-III ifloslangan yoki yuvilgan kiyim-kechak, kir-IV harakat<sup>105</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da esa ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirilgan va ma’nolariga izoh berib o‘tilgan.

**Ko‘k** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida to‘rt xil ma’noda (ko‘k-I moviy, zangori, ko‘k-II osmon, falak, samo, ko‘k-III ko‘kat, ko‘k-IV tikligan chok<sup>106</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa 8 xil ma’nodagi ko‘p ma’noli so‘z sifatida ketirilgan. Ko‘k so‘zining ma’nolariga diqqat qartadigan bo‘lsak, ma’nolar orasida uzviy bog‘liqlik, aloqadorlik yo‘qolgan va yangi so‘zlar hosil bo‘lgan, shu sababdan bu so‘z omoleksema hisoblanadi.

**Loyqa** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida uch xil ma’noda (loyqa-I loy aralashib, loyqa-II loy aralashgan, loyqa-II loy cho‘kmasi<sup>107</sup>) keltirilgan, ammo “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da 4 xil ma’nosi izohlanib, ko‘p ma’noli so‘z sifatida berilgan.

1. Loyqalangan ma’nosida- *loyqa suv*.
2. Loyning cho‘kmasi ma’nosida.
3. Aralash-quralash, noaniq ma’nosida- *loyqa xayollar*

---

<sup>104</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 77-б

<sup>105</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 78-б

<sup>106</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 82-б

<sup>107</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 85-б



4. Biror ishning yomon oqibati, natijasi- *Ishning oqibatiga loyqa bo'lishiga aqli yetgan Qorasoch Noryigit bilan maslahatni bir joyga qo'ydi.* T. Sulaymon, Qorasoch.<sup>108</sup>

**Sovuq** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (sovuq-I harorat past, sovuq-II atmosferaning past harorati, ayoz<sup>109</sup>) izohlangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 10 dan ortiq ma’nolariga izoh berilib, ko‘p ma’noli so‘z sifatida keltirilgan.

**Tiqin** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (tiqin-I qopqoq, tiqin-II liq to‘la, tirband<sup>110</sup>) izohlangan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ko‘p ma’noli so‘z sifatida qaralgan. Lekin “tiqin” leksemasining ma’nolari bir-biriga bog‘liq bo‘lmaganligi va boshqa-boshqa ma’nodagi so‘zlar bo‘lganligi sabab ko‘p ma’noli so‘z emas, balki omonim so‘z sanaldi.

**Chuqur** leksemasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da omonim so‘z sifatida ikki xil ma’noda (chuqur- I chuqurlik, chuqur-II cho‘nqir<sup>111</sup>) izohlangan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ko‘p ma’noli so‘z sifatida berilgan. Quyida ma’nolariga izoh berib, solishtirib o‘tamiz.

1. Chuqurlik ma’nosida.
2. Sathdan ancha past, cho‘nqir ma’nosida.
3. Yuzadan ichkariga, ich-ichiga ma’nosida- *Chuqur botaverdi yurakka xanjar.* X. Davron.<sup>112</sup>
4. Mustahkam, qattiq ma’nosida- *qalbdan chuqur joy olmoq.*
5. Ichdan, o‘pkadan to‘lib-toshib chiqqan- *Nigora chuqur nafas oldi.*  
“Sharq yulduzi”<sup>113</sup>

---

<sup>108</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati” IV- tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,506-b

<sup>109</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 115-б

<sup>110</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 132-б

<sup>111</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 157-б

<sup>112</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati” IV- tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,518-b

<sup>113</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati” IV- tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,518-b

Chuqur leksemasining ma'nolari bir-biriga yaqinligi va bir-biridan o'sib chiqqanligi sabab ko'p ma'noli so'z hisoblanadi.

**Yupqa** leksemasi "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati"da ikki xil ma'noda (yupqa-I qalin emas, ingichka, yupqa-II ovqat<sup>114</sup>) izohlangan, ammo "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'p ma'noli so'z sifatida talqin qilingan.

**Qani** leksemasi "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati"da ikki xil ma'noda (qani-I so'roq olmoshi, qani-II undov so'z<sup>115</sup>) izohlangan bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa 3 xil ma'nodagi ko'p ma'noli so'z sifatida keltirilgan.

1. So'roq olmoshi vazifasida- *bolalar qani? Kitobim qani?*
2. E'tiborni jalb etish, undash, da'vat ma'nolarida- *Qani, bek otasi ko'rmanani beringchi.* A. Qodiriy, O'tgan kunlar.<sup>116</sup>
3. Istak-xohish ma'nosida- *Qani hamma narsa orzu qilganingdek bo'lsa.*

Yuqorida keltirilgan misollardan anglashiladiki, "qani" leksemasi turli xil vazifalarda kelib, yangi ma'nolarni ifodalamoqda, demak, ushbu so'z omoleksema hisoblanadi.

Ushbu bobimizda "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati"da keltirilgan omoleksemalarni "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi omonimlar bilan solishtirib, lug'atlardagi turli tafovutlarni aniqlashga, polisemiya bilan omonimiyaning o'zaro munosabati va farqli tomonlarini misollar orqali qiyoslashga va har ikki hodisaning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilishga harakat qildik.

---

<sup>114</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 167-б

<sup>115</sup> Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984, 179-б

<sup>116</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati" V- tom. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006,239-b

## **Xulosa.**

Lugʻatlarning muayyan xalq maʼnaviyati va milliy madaniyatida muhim oʻrin egallashi isbot talab qilmaydigan holatdir. Ularda jamiyatning maʼlum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lugʻatlar maʼlum ijtimoiy vazifalar bajarishi, jumladan, oʻquvchiga muayyan hodisa yoki holat haqida maʼlumot berishi, uni oʻz va oʻzga tillardagi soʻzlar bilan tanishtirishi, tilni, uning lugʻat tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam berishi bilan katta ahamiyatga ega boʻlib, doimo zamonaga hamnafas tarzda mukammalashib borishi zarur. Biroq lugʻatlar qanchalik zamonaviy, mukammal boʻlmasin, davrdan maʼlum darajada orqada qolib, soʻzlar hamda ular ifodalagan narsa va hodisalar oʻrtasidagi u yoki bu oʻzgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangicha munosabatlarni kechikib qayd etadilar.

Yuqorida aytilganidek, har qanday tilning rivojlanishida uning leksikasi tez, sezilarli va jiddiy oʻzgarishlarga uchraydi. Leksikadagi taraqqiyot yangi lugʻaviy birliklarning paydo boʻlishi, maʼlum lugʻaviy birliklarning isteʼmoldan chiqishi, soʻzlarning yangi maʼnolar kasb etishi va ayrim maʼnolarning yoʻqolishi kabi hodisalar bilan xarakterlanadi. Ana shunday oʻzgarishlar maʼlum darajaga yetgach, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi ishlarga ehtiyoj tugʻiladi. Amaldagi "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" ham xuddi shunday ehtiyoj, talab tufayli juda katta mehnat evaziga yuzaga kelgan.

Hozirgi davrda lugʻatlarning elektron variantlari ham yaratilmoqdaki, ular bilan ishlash ancha qulayliklarni keltirib chiqaradi. Kerakli soʻzni topish vaqti tejaladi, tarjima qilish esa osonlashadi. Lugʻatlarni yaratish jarayoni qanchalik mashaqqatli boʻlmasin, uning natijasi shuncha ahamiyatli boʻladi. Hozirgi yoshlarimizning asosiy vazifasi - zamon talabiga mos, elektron lugʻatlardan foydalanishni mukammal oʻrganib olish hamda oʻzbek tilining izohli lugʻatining elektron variantlarini tayyorlash. Kompyuter savodxonligiga ega boʻlgan yoshlar dasturlash kasbiga ega boʻlsa, tilimiz boyligini bemalol koʻrsata olishi mumkin.

Biz ushbu tadqiqot ishimizda hozirgi o‘zbek adabiy tilida omonim hodisasi, paydo bo‘lish omillari va tiplarini o‘rganish natijasida, shuningdek, ”O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va ”O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”dagi omoleksemalarni qiyoslash natijasida quyidagi xulosalar kelib chiqdi:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida omonim tushunchasi, paydo bo‘lish omillari va tiplari turli tomondan o‘rganildi.
2. To‘liq omominlarning asosiy tiplari doirasida ot turkumi sathida shakllangan omoleksemalarning qiyosiy tahlili “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”lari orqali o‘rganilib, qo‘llanilish darajasi tahlili amalga oshirildi.
3. Ot turkumi doirasida 238 ta to‘liq omoleksema aniqlanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”lari orqali qiyoslandi.
4. Fe‘l turkumi sathida shakllangan 69 ta omoleksema aniqlanib, “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”laridagi o‘zaro farqli tomonlarini qayd etildi.
5. Omofoma tipidagi omonimlar tahlilida ikki, uch va undan ortiq turkum doirasidagi omoleksemalarning qiyosiy tahlili o‘rganildi.
6. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” asosida ikki turkum doirasida shakllangan omoleksemalar soni 254 tani tashkil qilib, shulardan 119 tasi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” ifodalanmaganligi aniqlandi.
7. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da uch va undan ortiq turkum doirasidagi omoleksemalarning turli ma’nolarini qiyoslash orqali ularning deyarli 50 % qismi “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”ga kiritilmaganligi aniqlandi.
8. Uch va undan ortiq leksema doirasida farqlanuvchi omonimlar “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, shuningdek, boshqa o‘quv qo‘llanmalari asosida qiyoslanib o‘rganildi.
9. “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da ifodalangan omonimlarni

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mavjud omoleksemalar bilan taqqoslab, polisemiya yoki omonimiya hodisasi ekanligini qiyosiy tahlil qilindi, to‘liq va omoforma tipida guruhlariga ajratib o‘rganildi.

Shunday ekan, biz ushbu tadqiqotimiz ishimiz davomida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”, shuningdek, o‘quv qo‘llanmalaridagi omoleksemalarining turli ma‘no qirralarini aniqlashga, qiyoslashga, ikki, uch va undan ortiq turkum doirasidagi omonimlar, uch va undan ortiq leksema doirasida farqlanuvchi omoleksemalarning ma‘nolarini qiyoslashga, to‘liq omonimlar asosiy tiplari sathida ot va fe‘l turkumi doirasida shakllangan omoleksemalarning qo‘llanilish darajasi tahlilini amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldik. Bunday tahlillarni davom ettirish tilshunosligimizda bo‘lib turgan o‘zgarishlarni vaqtida anglash, shu bilan birga, ayrim kamchiliklarni bartaraf qilib, lug‘atlarimizni yanada sifatli yaratish uchun asos bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. RAHVARIY ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд.-Т.: Ўзбекистон, 1996. 80-бет.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998. 3-бет.
3. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз, - Т.: Ўзбекистон, 2000.
4. Каримов И.А. «Ўзбекистон XXI асрга интилоқда». Т. «Ўзбекистон» 2000.й
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент. Маънавият, 2008.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997, 137-бет.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Т.: O‘zbekiston, 2016.

### II. ASOSIY ADABIYOTLAR

8. Абдурахмонов Ғ. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи, 1779 й.
9. Алиқулов Т. Ўзбек лексикографияси 70 йил ичида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1987. -№ 5.
10. Асқарова М. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми. Тошкент. “Ўқитувчи”, 1972.
11. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1995 й.
12. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Қарши: Насаф, 2005.
13. Миртожиев М. Сўзларнинг шакл муносабатига кўра турлари//Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: 1981.
14. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. -Т.: Фан, 1975.

15. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
16. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. -Т.: Ўқитувчи, 1995.
17. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006.
18. Содиқов Т. Сўзларнинг шакл ва маъно муносабатларига кўра турлари//Ўзбек шевалари лексикаси. -Т., 1991.
19. Турсунов У., Мухторов Ш. , Раҳматуллаев Ш.. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент 1992 йил.
20. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова. М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: 1980й.
21. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова. М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: 1980 й.
22. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.:Ўқитувчи,1984.
23. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
24. Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981. -313 б.
25. Ҳожиёв А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили луғат таркибининг ривожланиш асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1994. -№ 1.
26. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q.Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2009.

### **III. QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR.**

27. Абдурахмонов Х., Рафиқов А., Шодмонқулова Д. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. Тошкент. Ўқитувчи. 1992 й.
28. Азизходжаев А.А. «Давлатчилик ва маънавият». Т. «Академия» 1997.
29. Анорбекова А., Мирзаева Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Академик лицейлар учун маърузалар матни. – Т.: Ношир, 2011.

30. Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий-тарихий асослари //Ўзбек тили лексикологияси, -Т., 1981.
31. Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: Фан, 1985.
32. Замоनावий ўзбек тили: Морфология. Муаллифлар жамоаси. – Т.: Мумтоз сўз; 2008.
33. Мавлонова Х. Синонимлар классификациясига доир//Ўзбек тили ва адабиёти. –1968. -Н-2.
34. Маҳмудов Н., Нурмонов А., Набиева Д., Мирзахмедов А. Она тили. 7-синф учун дарслик. “Маънавият” нашриёти, Тошкент-2005.
35. Маҳмудов Н., Нурмонов А., Собиров А. Она тили. 9-синф учун дарслик. “Тасвир” нашриёт уйи, Тошкент-2006.
36. Маҳмудов Н., Нурмонов А., Собиров А., Набиева Д. Она тили. 6-синф учун дарслик. “Тасвир” нашриёт уйи, Тошкент-2005.
37. Маҳмудов Н., Нурмонов А., Собиров А., Қодиров М., Жўрабоева З. Она тили. 5- синф учун дарслик. “Маънавият” нашриёти, Тошкент-2004.
38. Неъматов Ҳ., Ғуломов А., Қодиров М., Абдураимова М., Она тили. 6-синф учун дарслик. “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент – 2004.
39. Нурмонов А. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Академик лицейлар учун дарслик. I-II-III қисм. /– Т.: “Илм зиё”, 2010.
40. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т.: Университет, 1-жилд. 2000.
41. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. –Т.: Фан, 1964.
42. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. -Т., 1987.
43. Умумтаълим мактабларининг 5-9-синфлари учун ўзбек тилидан ўқув дастур.



44. Хусанбоева Қ. Адабий таълимда мустақил фикрлашга ўргатиш асослари. Монография. Т. 2003.
45. Хусанбоева Қ. Адабий таҳлил жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий методик асослари. Пед. Фан. Доктори... дисс-Т. 1995
46. Ўзбек тили лексикологияси. Дарслик. А. Ҳожиёв, А. Аҳмедов. – Т.: Фан, 1981.
47. Қодиров М., Неъматов Ҳ., Абдураимова М., Сайфуллаева Р. Она тили. 8-синф учун дарслик. Чўлпон номидаги нашриёт матбаа уйи. Тошкент-2006.
48. Ғойибов С. Ўзбек тили лексикасининг стилистик қатламлари // Ўзбек тили лексикологияси. –Т., 1981.
49. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкент, ЎЗМЕ., 2002.
50. Ҳотамов Н. Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча луғати. –Т., 1979.

#### **IV. INTERNET RESURSLAR**

51. <http://www.google.uz>
52. <http://www.ziyouz.com>
53. [www.doda.uz](http://www.doda.uz)
54. [www.ege.edebiyat.org](http://www.ege.edebiyat.org)
55. [www.ref.uz](http://www.ref.uz)
56. [www.uz](http://www.uz)



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

57. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild.- T.: O‘zbekiston, 1996. 80-bet.
58. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. –T.: Sharq, 1998. 3-bet.
59. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz, - T.: O‘zbekiston, 2000.
60. Karimov I.A. «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda». T. «O‘zbekiston» 2000.y
61. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. Ma’naviyat, 2008.
62. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.
63. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1984.
64. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
65. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. Toshkent, O‘zME., 2002.
66. Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati. –T., 1979.
67. Mirtojiyev M. So‘zlarning shakl munosabatiga ko‘ra turlari//O‘zbek tili leksikologiyasi. -T.: 1981.
68. Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O‘qituvchi, 1995.
69. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. T.: Universitet, 1-jild. 2000.
70. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati. –T.: Fan, 1964.

71. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
72. Sodiqov T. So‘zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari//O‘zbek shevalari leksikasi. -T., 1991.
73. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova. M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: 1980y.
74. Abdurahmonov G‘. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi, 1779 y.
75. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q.Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2009.
76. Azizxodjaev A.A. «Davlatchilik va ma’naviyat». T. «Akademiya» 1997.
77. Begmatov E. O‘zbek tili leksikasining ijtimoiy-tarixiy asoslari//O‘zbek tili leksikologiyasi, -T., 1981.
78. G‘oyibov S. O‘zbek tili leksikasining stilistik qatlamlari // O‘zbek tili leksikologiyasi. –T., 1981.
79. Mavlonova X. Sinonimlar klassifikatsiyasiga doir//O‘zbek tili va adabiyoti. –1968. -N-2.
80. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. –Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
81. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. -T.: Fan, 1975.
82. Mahmudov N., Nurmonov A., Nabiyeva D., Mirzahmedov A. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. “Ma’naviyat” nashriyoti, Toshkent-2005.
83. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. “Tasvir” nashriyot uyi, Toshkent-2006.
84. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. “Tasvir” nashriyot uyi, Toshkent-2005.
85. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov M., Jo‘raboyeva Z. Ona tili. 5- sinf uchun darslik. “Ma’naviyat” nashriyoti, Toshkent-2004.
86. Ne‘matov H., G‘ulomov A., Qodirov M., Abduraimova M., Ona tili. 6-sinf

- uchun darslik. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2004.
87. Qodirov M., Ne‘matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent-2006.
  88. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. -T., 1987.
  89. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova. M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: 1980 y.
  90. Tursunov U., Muxtorov Sh. , Rahmatullayev Sh.. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent 1992 yil.
  91. Umumta’lim maktablarining 5-9-sinflari uchun o‘zbek tilidan o‘quv dastur.
  92. O‘zbek tili leksikologiyasi. -T.: Fan, 1981. -313 b.
  93. Xusanboyeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. Monografiya. T. 2003.
  94. Xusanboyeva Q. Adabiy tahlil jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy metodik asoslari. Ped. Fan. Doktor... diss-T. 1995
  95. Abdurahmonov X., Rafikov A., Shodmonqulova D. O‘zbek tilning amaliy grammatikasi. Toshkent. O‘qituvchi. 1992 y.
  96. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Akademik litseylarlar uchun ma’ruzalar matni. – T.: Noshir, 2011.
  97. Asqarova M. O‘zbek tili grammatikasining praktikumi. Toshkent. “O‘qituvchi”, 1972.
  98. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1995 y.
  99. Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. I-II-III qism. /– T.: “Ilm ziyo”, 2010.
  100. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Qarshi: Nasaf, 2005.
  101. Zamonaviy o‘zbek tili: Morfologiya. Mualliflar jamoasi. – T.: Mumtoz so‘z; 2008.
  102. O‘zbek tili leksikologiyasi. Darslik. A. Hojiyev, A. Ahmedov. – T.: Fan, 1981.

103. Begmatov E.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985.
104. Aliqulov T. O‘zbek leksikografiyasi 70 yil ichida // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1987. -№ 5.
105. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o‘zbek tili lug‘at tarkibining rivojlanish asoslari // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1994. -№ 1.
106. [www.doda.uz](http://www.doda.uz)
107. [www.ege.edebiyat.org](http://www.ege.edebiyat.org)
108. [www.ref.uz](http://www.ref.uz)
109. [www.uz](http://www.uz)